

SH.N.QURBONOVA

**TEXNOLOGIYA O`QITISH METODIKASI
FANIDAN AMALIY MASHG`ULOTLARNI
TASHKIL ETISH
O`QUV QO`LLANMA**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'ILM VAZIRLIGI**

SH.N.QURBONOVA

**TEXNOLOGIYA O`QITISH METODIKASI
FANIDAN AMALIY MASHG`ULOTLARNI
TASHKIL ETISH.**

**5111700-Boshlang`ich ta`lim va sport -tarbiyaviy ish ta`lim yo`nalishi
talabalari uchun**

O`QUV QO`LLANMA



BUXORO-2022

373.21:796(072)

75.7ya73

Q 80

Qurbonova, Sh.N.

Texnologiya o`qitish metodikasi fanidan amaliy mashg`ulotlarni tashkil etish

[Matn] : o`quv qo`llanma / Sh.N. Qurbonova .-Buxoro: FAN VA TA`LIM,

2022.-200 b.

KBK 74.10

Mazkur o`quv qo`llanma boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi(kunduzgi va sirtqi bo`lim)talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib,fan bo`yicha amaliy mashg`ulotlari jarayonida foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari nomzodi,

dozent M.M.Tilavova;

Pedagogika fanlari bo`yicha

falsafa doktori Z.D.Hasanova.

O`quv qo`llanma O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug`iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8575-4-4

MUNDARIJA

Kirish.....	6
1-amaliy mashg`ulot.Mavzu:Qog`ozga ishlov berish usullari.	
Qog`ozni buklash usullari.....	8
2-amaliy mashg`ulot.Mavzu: Qog`ozni ketma-ket usulda buklab maketlar yasash.....	23
3-amaliy mashg`ulot.Mavzu: Qog`ozni oddiy usullarda buklab maketlar yasash.....	40
4-amaliy mashg`ulot.Mavzu: Qog'ozni murakkab usullarda buklab maketlar yasash.....	57
5-amaliy mashg`ulot.Mavzu: “Oq qush” modulli origamisini qurish-yasash.....	75
6-amaliy mashg`ulot.Mavzu:Ertak qahramonlarining modulli origamisi.....	84
7-amaliy mashg`ulot.Mavzu: Modulliorigamigullari.....	94
8-amaliy mashg`ulot.Mavzu:“Sanoq sonlari” ko`rgazmali qurolini tayyorlash.....	105
9-amaliy mashg`ulot.Mavzu: “Telefon” ko`rgazmali qurolini yasash texnologiyasi.....	116
10-amaliy mashg`ulot.MAVZU: Kartondan “Olmali daraxt” ko`rgazmali qurolini tayyorlash.....	124
11-amaliy mashg`ulot.MAVZU: Kartondan “Uyla, Izla, Top” ko`rgazmali qurolini tayyorlash.....	130
12-amaliy mashg`ulot.MAVZU:Kvilling usulida tabriknoma tayyorlash... 	138

Boshlang`ich sinf “Texnologiya” darslarida namunali dars ishlanmalarini tayyorlash.....	154
Mavzularga oid topshiriqlar.....	169
TEST SAVOLLARI.....	173
GLOSSARI.....	185
ADABIYOTLAR.....	196

ANNOTATSIYA

Mazkur o`quv qo`llanma 5111700-Boshlang`ich ta`lim va sport -tarbiyaviy ish ta`limiy o`nalishi talabalari va umumiy o`rta ta`lim muassasalarining “Texnologiya” fan o`qituvchilari uchun mo`ljallangan bo`lib, unda fanning maqsad va vazifalari, metodologik asoslari, tarixiy taraqqiyoti, didaktik asoslari, ta`lim metodlarining tasnifi, ilmiy tadqiqot metodlari, amaliy fanlar bilan integratsiyasi, fanni o`qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, “Texnologiya” fanini o`qitish metodikasiga qo`yiladigan metodik talablar kabi masalalar yoritilgan.

АННОТАЦИЯ

Учебное пособие предназначено для студентов специальности 5111700-Начальное образование и физкультурно-воспитательная работа и преподавателей специальности «Технология» общего среднего образования. Цели и задачи науки, методологические основы, историческое развитие, дидактические основы, классификация методов обучения, методы исследования, интеграция с прикладными науками, использование инновационных педагогических технологий в обучении науке, методика преподавания «Технология». Освещены такие вопросы, как методические требования.

ANNOTATION

The textbook is intended for students of the specialty 5111700-Primary education and physical culture and educational work and teachers of the specialty "Technology" of general secondary education. Goals and objectives of science, methodological foundations, historical development, didactic foundations, classification of teaching methods, research methods, integration with applied sciences, the use of innovative pedagogical technologies in teaching science, teaching methods "Technology". Issues such as methodological requirements are highlighted.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining “Harakatlar strategiyasi”da ta’lim sifatini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalari alohida o‘rin egallaydi. Harakatlar strategiyasidan ko‘zlangan asosiy maqsad – O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha yoshlar uchun 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasiga yanada kengroq jalb qilishdir. Talim sohasidagi islohotlar O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga intilish

yoʻlidagi keng koʻlamli ishlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar boʻlib Oʻzbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini taʼminlash maqsadida taʼlim jarayonida zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda, shunga javoban bu ishni samarali va amaliyotga joriy etishda natijaviylikka eʼtiborni qaratamiz. Texnologiya va uni oʻqitishi metodikasi fani pedagogika, psixologiya, tasviriy sanʼat, tabiatshunoslik fanlari bilan bogʻlanadi. Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishi asosida ularni toʻgʻarak ishlariga, ilgʻor oʻqituvchilarning ish tajribalarini oʻrganishi va ommalashtirishga, mustaqil ishlar, maʼruzalar, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishi yozishga jalb qilish tavsiya etiladi. Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi fani taʼlim metodikalari kursi fani hisoblanib, fanning asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilgʻor oʻqituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beriladi. Oʻquvchilarni amaliy ishga tayyorlash va ularni mehnat malaka va koʻnikmalarini egallashlarini taʼminlaydi. Texnologiya fanining tarbiyaviy ahamiyati oʻquvchilarda mehnatsevarlik, masʼuliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, oʻquvchilarning aqliy oʻsishida eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Oʻquvchilar oʻrtasida yoʻlga qoʻyilgan oʻzaro yordam esa, ularda doʻstlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarini tarbiyalaydi. Talabalarning fanni oʻzlashtirish jarayonida darsliklar, oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar, maʼruza matnlari, texnik vositalardan unumli foydalanish, uzatish qurilmalari yordamida slaydlardan va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanishda pedagogik texnologiya yutuqlarini qoʻllash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, interfaol usullarni, taʼlimiy vositalarni va taʼlimiy oʻyinlarni taʼlim jarayoniga tadbqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Fanni oʻqitishdan maqsad — talabalarni boshlangʻich sinflarda texnologiya fanining mazmuni va vazifalari, oʻqitish usullari, taʼlimiy vositalar bilan tanishtirish va ularni taʼlim jarayoniga tadbqiq etish boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalarini shakllantirishdir. Fanning vazifalari — boshlangʻich sinflarda texnologiya fanining asosiy vazifalari oʻquvchilarni mehnatga tayyorlash, bilim

berish va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasblar haqida ma'lumot berish izchilligini takomillashtirish, Davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat. Qo'llanmada har bir amaliy mashg'ulotlarning mavzusi, unga tayyorlanish jarayonida talaba bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, metodik ko'rsatmalar va eng muhim nazariy manbalar keltirilgan. Ushbu qo'llanmada fan dasturidan kelib chiqib berilgan ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan amaliy mashg'ulotlar mazmuni va mashg'ulotlar uchun qo'shimcha materiallar berilgan. Shuningdek, qo'llanmada o'quv muassasida bo'lishi lozim bo'lgan o'quv ko'rsatmali metodlar, shakllari, texnologiyalarining muhimligi, texnologiya fani o'quv-uslubiy jarayonlarini samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallarni tayyorlash haqida ham ma'lumotlar bayon qilingan.

Mazkur o'quv qo'llanma barcha berilgan talablar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarining "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalari texnologiya fani o'qituvchilari uchun qo'llanma sifatida tavsiya qilinadi.

1- amaliy mashg'ulot:

Mavzu: Qog'ozga ishlov berish usullari. Qog'ozni buklash usullari.

Reja:

1. Qog'ozning paydo bo'lish tarixi va ishlatilishi haqida.
2. Qog'oz va uning turlari, xususiyatlari
3. Qog'ozga ishlov berish usullarini

Maqsad: Qog'oz turlarini o'rganish, qog'oz xususiyatlarini tahlil qilish va qog'ozga ishlov berishni o'rgatish.

Mavzuga oid tayanch iboralar: Qog'oz, karton, ro'znoma qog'oz, gazeta qog'oz, baxmal qog'oz, pergament kitob, piktografiya, miqnat, sellyuloza, papirus, payraha qozon, kaolin, ishlov berish usullari, ishlash texnologiyalari.

Kerakli materiallar va ish qurollarini tayyorlash.

Metodik qo'llanmalar, slaydlar, ko'rgazmalar, turli rangli qog'ozlar to'plami, chizg'ich, qaychi, qalam, yelim.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Sanoqulov X.R., Xodiyeva D.P., Satbayeva. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. Darslik .T.: TDPU. 2015.
2. The Exquisite Book of Paper Flowers: A Guide to Making Unbelievably Realistic Paper USA, 2014 Blooms. USA, 2014. Paperback New York, Boston.
3. Mavlonova R.A., Sanoqulov X.R., Xodiyeva D.P. "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma. 2007. TDPU.
4. Texnologiya 1-sinf :darslik /D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva. Toshkent:Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.
5. Texnologiya 2-sinf :darslik / X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva. –Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 80 b.
6. Matlab Tilavova "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi". Toshkent "Durdona nashriyoti". 2021

1. Qog'ozning paydo bo'lish tarixi va ishlatilishi haqida.

Odamlar asrlar davomida o'z xotiralarini suyakka, toshga, hayvonlar terisiga bitik qilib keldi. Fikrlarning ilk shakli belgilar bilan ifodalangandir. Dastlabki kitoblar-qoyalar bo'lib ibtidoiy odamlar unda ovchilik, qurol yaroqlari, o'rmon va sahrolarda yashovchi hayvonlarning rasmlarini o'yib ishlaganlar. Yozuvning dastlabki sistemasi piktografiya deyiladi. «Piktos»- grekcha rasm demakdir. Biroq ayni bir rasmning o'zi turli hodisalarni bayon qilishi mumkin, keyinchalik odamlar yozuvni amalda qullashga harakat qilganlar.

Odamlar ilk sahifani loy plastinkadan tayyorlab uning yumshoq sathiga uchi o`tkirlangan qamish bilan uzaytirilgan uchburchak shaklidagi belgilarini qo`yishgan . Yozuvning bu usuli miqnat deb atalgan. Belgilar bilan to`lgan taxtachalar xumdonlarda pishirilib, yassi gisht sahifalar paydo bo`lgan, ulardan sopol kitoblar tuzilgan, ularning sahifalari birlashtirilmagan, yashiklarga joylangan.

Qadim Hindistonda yozuvlar palma barglarga bitilgan. Palma yaproqlarini quritib ulardan eskis plastinkalar qirqib olinib keyin tush bilan yozilgan. Bu plastinkalar keyin bir biriga mustahkamlanib, jilti yaxshi silliqlangan taxtachalardan qilingan ustiga bezak berilib kitob holatiga keltirilgan.

Qadimiy yunonlar mum kitoblarini ixtiro qilishgan. Bu yaxshi tekislangan taxtacha o`rtasidan kvadrat o`yilgan bo`lib, u sariq yoki qora mum bilan to`ldirilgan. Yozuvda esa po`lat cho`pdan foydalanilgan. Bir uchi o`tkir po`lat cho`p bilan yozishgan bo`lsa ikkinchi dumaloq uchi bilan yozilgan narsani o`chirishgan. Bir biri bilan birlashtirilgan taxtachalardan kitoblar yasalgan, kitob jadval yoki sahifalarning qulayligi shundaki, ulardan uzoq muddat bemalol foydalanish, yozuvni o`chirish va qayta yozish juda oson bo`lgan. Yozish materiallarini Nildan olganlar. Nil vodiysi botqoqliklarida qamishga o`xshash o`simliklar bo`lib qadimgi Rim xalqi uni papirus deb ataganlar. Silliq poyasiz, bargsiz o`simliklarni bo`yi 4 metr ga etar edi. Yozuv quroli uchun poya barglaridan tozalaniib, uning o`rtasidagi yumshoq govak o`zak olinar edi. Ulardan uzun yupqa plastinkalar qirqilib tik holda taxlanardi. So`ngra ho`l barg yopishtirilib preslanar edi, ular qurigach sirti pemza bilan sayqallanardi. Bulardan qilingan eng katta kitob Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanardi. Bir necha ming yillar davomida papirus yagona yozuv materiali bo`lib kelgan. Unda asosan misrliklar, greklar, rimliklar foydalanib kelganlar. Pergament kitob taxminan eramizning III asrida kichik Osiyodagi qadimiy shahar Pergamentda paydo bo`lgan. U hayvonlar terisidan tayyorlangan. Bu anchagina murakkab, ko`p mehnat bilan bajarilgan. Teri maxsus eritmada namlangan, chuzilgan, quritilgan keyin qirilgan, sayqal berilgan va tekislangan. Bu kitob uchun butun bir poda mol suyilgan. Teri kitob papirusga

nisbatan bir necha avzalliklarga ega bo`lib, uning ikkala tomonidan bema'lol yozish mumkin.

Eramizdan V asr muqaddam uzoq Sharq mamlakatlarida shoyiga yozish rasm bo`lgan. Bu ham qimmatbaho material bo`lib, madaniyat rivojlana borgan sayin yozish uchun arzon materialga talab orta borgan. Olimlar qog`ozni birinchi marta ipak mato tayyorlanagan vaqtda paydo bo`lgan deb taxmin qiladilar. Bambukdan qog`oz tayyorlagan ustaning nomi bizga noma'lum, Bambuk tozalab, maydalab qirgilib, bir necha kun ohakka buktirib pishirilgan, keyin sovutilib, uni maydalab yopishqoq bo`tqasimon massa maxsus hovuzga botirilib tezda qaytib olingan, to`rsimon tortilgan iplar ustida yupqa qatlam hosil bo`ladi. So`ngra ular pres ostiga quyilib, suvi siqib chiqarilgandan keyin, qolgan yupqa qog`oz varagi issiq pechda quritilgan. Evropada XV asrda kitob bosish kashf etilishi bilan qog`ozga talab yanada ortdi. Mavjud ishlab chiqarish bu talabni qondirishga ojizlik qilardi. XVII asrda Gollandiyada Rol kashf etildi. Uning ishlab chiqarish unumdorligi anchagina yuqori edi. Rol to`siq bilan ajratilgan oval shaklidagi vanna edi. Vannaning bir pichoqli baraban, uning tagida esa pichoqlardan qilingan planka joylashtirilgan edi. Qog`oz tayyorlashda XVIII asr fransuz Nikola Lui Robert kashf etgan samocherpka-birinchi qog`oz mashinasi inqilob qilgan. Bu mashina valikka o`rnatilib, mis to`rdan iborat qog`oz massali chan ostida to`xtovsiz aylanib turgan.

Chandagi qog`oz suzib oluvchi g`ildirak yordamida mis to`rga solingan, natijada suv oqib ketib, to`rda tolalarning yupqa qoplami qolgan. No`rning gorizental qismining oxirida valik bo`lib qog`oz lenta shunga o`ralgan, Tayyor qog`oz lenta valikdan olib quritilgan. XIX asrda Saksoniyalik to`quvchi Keller 1-bo`lib, qog`oz tayyorlashda eng arzon xomashyo -yog`ochni maydalash usulini topdi. Yog`ochni maydalashda u doimo ho`llab turiladigan charx toshdan foydalandi. 1944-yilda u yog`och massasini maydalaydigan mashina –defibrerni qurdi. Yog`ochdan qilingan qog`ozning lattadan qilingan qog`ozga nisbatan pishiqligi kamroq bo`lib, yorug`lik ta`sirida xiralashardi. Yog`och massadan sellulozani ajratishga faqat 1957- yilda

ingliz kimyogari F.Xauton muvaffaq bo`ldi. U yog`och massasiga qaynoq kaustik soda eritmasi bilan ishlov berdi. Qog`oz massasi yog`och selluloza va to`ldirg`ichlar(bo`r, bo`yoq moddalari, yelim)dan iboratdir. Selluloza qanchalik ko`p bo`lsa qog`ozning sifati shuncha yuqori bo`ladi.

Qog`oz ishlab chiqarish xomashyosi.Qog`oz ishlab chiqarishda yog`och,poxol(somon,ip gazlama ishlatilgan eski qog`oz(makalatura) xomashyo hisoblanadi,Ip gazlamadn,asosan,qog`ozning qimmatbaho va maxsus navlarini ishlab chiqarishda foydaniladi.Poxoldan karton,o`ram qog`ozlari tayyorlanadi,Makalatura turli navdagi qog`ozlarni tayyorlashda yaxshi xomashyo hisoblanadi. Poxol va,asosan,yog`ochdan qog`oz ishlab chiqarishning asosiy xomashyosi bo`lgan selluloza tayyorlanadi.

2.Qog`oz tayyorlashning texnologik jarayoni. Qog`oz ishlab chiqarish murakkab texnologik jarayon bo`lib,unda turli xomashyo va kimyoviy vositalar ishlatiladi.Selluloza qog`oz kombinati turli korxonalar kompleksi bo`lib,u yog`och ombori,qog`oz fabrikasi mum va yog`och zavodini o`z ichiga oladi.Qog`oz mum kombinatlar daryo va ko`llar qirg`ogida quriladi,chunki qog`oz ishlab chiqarishda suv ko`p talab qilinadi,bundan tashqati,yog`ochni oqizish ham qulaydir,Kombinatga kelgan g`o`lalar uzunligi bir metr 20 sm yoki 1metr-25 sm qilib qirqiladi,ular balans deb atalib,po`stloq shiluvchi apparatlarga o`tadi.Ular suvda aylanib turadi.Baraban aylanar ekan,balanslarni qobirg`ga va bir-biriga ishqalanishga majbur qiladi.Shu yo`sinda ular po`stdan ajraladi va po`stlar qoburg`lar oralig`idan o`tib ketadi,Tarkibida kletchatka miqdori ko`p bo`lgan qora qarag`ay selluloza tayyorlashda eng yaxshi xomashyo hisoblanadi.Balanslar maydalash mashinalarda payraxalarga aylantiriladi.Ular maxsys mashinalarda saralsnib qaynatish qog`ozini tepasidagi bunkerga uzatiladi,bu erda pishiradigan kislota va bug` kelib turadi.Kislota,odatda,oltingugurt moddasidan tayyorlanadi.Payraha qozonda 7-10 soat davomida 135-150 c haroratda qaynatiladi.Shundan so`ng massa tagi to`rsimon hovuzga chiqariladi,u erda suv oqimi bilan turli aralashma quyqalardan tozalanadi.Shundan so`ng maxsus mashinalarda yirik zarralar ajratib olinib,quyiltiriladi va hovuzlarga

saqlanadi. Sellulozani jo`natish qulay bo`lishi ushun u preslanadi, quritiladi va list list qilib quritilib qadoqlanadi. Balanslarning ikkinchi qismi yog`och zavodida maydalovchi mashinalar yordamida maydalanadi. Shundan so`ng tarkibida to`la bo`lgan bo`tqasimon massa payraxa tutgichdan o`tib maydalanmagan qismlar o`sha yerda qoladi. Markazidan qochirma navlariga ajratishda massadan yirik, maydalanmagan zarralar ajratib olinadi va yog`och massasi maxsus saqlanadigan hovuzga o`tadi, qog`ozning navi tarkibidagi selluloza va yog`och massasiga bog`liq bo`ladi. Qog`oz massasini yanada ingichkaroq tolalarga ajratish uchun maxsus apparatdan takror o`tkaziladi. Maydalash ba`zan bir sutkadan ortiq davom etadi, tola qanchalik ingichka bo`lsa ular bir biriga shunchalik yaxshi birikadi, demak ,qog`ozning navi ham sifati ham yuqori bo`ladi. Massaga turli kimyoviy moddalar bilan ishlov beriladi, rang uchun kaolin (oq loy), turli bo`yovchi moddalar, pishiqroq bo`lsin uchun kanifol yelimi qo`shiladi. Har bir qog`oz navi o`z tayyorlanish retseptiga egadir. Tayyor qog`oz massasi quvurlar orqali aralastiriladigan hovuzga o`tadi, massa yana maydalanadi va kerakli moddalar qo`shiladi hamda u qog`oz qiluvchi mashinaga o`tkaziladi. Bunday mashinani eni 6-8 metr, uzunligi 100-120 m bo`lgan kattagina konveyrdir, ular kuniga 400 t qog`oz chiqaradi. Juda mayda teshikli oxiri yo`q metal to`r valiklardan daqiqasiga 500 metr tezlikda harakat qiladi. Qog`oz massa metall to`rga uzluksiz tushib u bilan birga harakatda bo`ladi. To`r ustida apparatlarning butun bir majmui bo`lib, ular siqilgan havo oqimi yordamida qog`oz massasidagi suvni so`rib oladi. Nam qog`oz massasi mato ustiga o`tadi. Mato qog`ozni ikki valik orasiga olib kiradi. Bir qator presslashlardan so`ng qog`oz chizig`i qaynoq qurutuvchi slindrlarga yopishib o`tadi. Qog`ozni silliqlash uchun u sovuq mis slindrlari va cho`yan vallar orqali o`tkazilib polga tushiriladi. Mashinaning bu qismi glezer deyiladi. So`ngra bosqich qog`ozni o`ramlarga o`rash va iste`molchilarga jo`natishdir.

Insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri-Buyuk ipak yo`li asrlar davomida tasavvurga sig`mas darajada insoniyat tamadduniga keskin burilish yasadi, mislsiz kashfiyotlarga sababchi bo`ldi. U nafaqat uzoq manzillar va elatlarni bir-biriga yaqinlashtirdi, balki turli g`oya va madaniyatlar o`chog`i va chorrahasiga aylandi.

Tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirdi. Ushbu savdo yo‘llarida Xitoy chinni va shoyisi hamda hind ziravorlari qanchalik shuhrat qozongan bo‘lsa, moziyning yaqin ming yilligiga qadar Samarqand qog‘ozi ham Buyuk ipak yo‘lida eng ko‘p xarid qilinadigan noyob tovarga aylandi.



Tut navi po‘stlog‘idan turli xildagi Samarqand qog‘ozlari ishlab chiqarilmoqda.

Samarqand qog‘ozi



2.Qog‘oz va uning turlari, xususiyatlari Hozirgi kunda ishlab chiqarish sanoatida qog‘oz va kartonning ikki yuzga yaqin turi ishlab chiqarilmoqda. Turli xii qog‘ozlardan kitoblar, oynomalar, ro‘znomalar chiqarish uchun foydalanishini barcha o‘quvchilar yaxshi biladilar. Shuning uchun ham texnologiya ta’limi darslarida o‘qituvchi o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini ular foydalanadigan qog‘ozning turmushda tez-tez uchraydigan va qo‘l mehnati darslarida ishlatiladigan turlariga jalb qilib borishi lozim.

Bu qog‘ozlaming turlari quyidagilardan iborat:

Yozuv qog‘ozi - sathi silliq, yelim singdirilgan, namlikni kamroq singdiradi. Narsalarni ixtirolashda, muqovalashda, kartondan yasalgan narsalarni yelimlashda juda qulaydir. Rangli qog‘ozi - turli ranglarda bo‘ladi, jilo berilgan rangli qog‘ozning o‘rinini bosa oladi. Qo‘l mehnati darslarida ko‘p ishlatiladi.

Gazeta qog‘ozi - eng ko‘p tarqalgan qog‘oz turlariga kiradi. Sifatiga ko‘ra unchalik pishiq emas, namlikni, yelimni o‘ziga tez singdiradi.

Daftar qog‘ozi - sirti silliq, yelim singdirilgan, pishiq qog‘oz hisoblanadi. Daftar qog‘ozi katakli va yo‘l-yo‘l chiziqli bo‘ladi.

Baxmal qog‘ozi - turli ranglarda bo‘ladi, sirti mayin tuk bilan qoplangan bolib, karton qog‘oz o‘mida ham ishlatish mumkin.

Qum qog‘ozi - yog‘och va turli materiallarga ishlov berish uchun foydalaniladigan qog‘oz turi bo‘lib, uning sirtiga qum zarralari yelimlangan.

Oboy gul qog‘ozi - rangi va guli turlicha bo‘lib, muqovalashda, narsalarning ustidan yelimlashda, bezak ishlarida keng foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Bosma qog‘oz - rasm va yozuvlardan nusxa olish uchun mo‘ljallangan.

Yelimlangan qog‘oz – jilo berilgan qog‘oz bo‘lib, bir tomoniga yelim surtilgan qo‘l mehnati darslari uchun juda qulay.

Rangli jild qog‘ozi—turli ranglarda bo‘yalgan, jilo berilgan rangli qog‘ozning o‘rnini bosib, qo‘l mehnat darslarida keng qo‘llaniladi.

Shagren naqshdor qog‘ozi muqova sozlikda va tayyor narsalarning ustidan yopishtirishda, archa o‘yinchoqlarini yasashda foydalaniladi.

Gulqog‘ozning rangi va guli turlicha bo‘lib muqovalash, narsalarning ustidan yelimlash, bezash ishlarida keng foydalaniladi.

Karton qog‘ozi - bu 1 kv m 250 grammdan ortiq bo‘lgan qog‘oz turi hisoblanadi.

Chizmachilik qog‘ozi - eng pishiq va qalin qog‘ozdir. Matodan tayyorlanadi, uning oliy navi qo‘lda tayyorlanadi. Undan bayramlar uchun qiziqarli niqoblar tayyorlashda foydalaniladi.

Rasm qog'oz - ikki xil nomerli bo'lib, selyullozadan tayyorlanadi. Oliy naviga 25% mato bo'lagi qo'shiladi. Chizmachilik chizishda shuningdek, qo'l mehnati darslarida foydalaniladi.

Rangli va jiloli qog'oz - mehnat darslarida keng qo'llaniladi. Turli xil rangdagi muqovalash ishlarida va turli xil rangda qog'ozlar to'plami chiqariladi. Karton qog'oz - karton deb 1 kv m 250 grammdan ortiq bo'lgan qog'ozga aytiladi.

Kalka qog'oziga shaffoflik berish uchun mum va moy singdiriladi. Yaxshi, sifatli kalka qog'ozining hatto tozalangan joyida ham tush yoyilib ketmasligi kerak. Kalka qog'oz "fonus hayol" teatrida archa o'yinchoqlari yasash, sahnani bezash, rasmlarni qayta tushirish ishlarida ishlatiladi.

Millimeter qog'oz – sathi bosma to'r shaklida tayyorlanadi.

Filtr qog'oz – yelimlanmagan qog'ozdir.




Oq karton - uni qirqish oson, o'zi unchalik pishiq emas, tez sinadi. Bu karton yelimni ko'p shimadi (ko'pincha yelimdan shishadi). Undan mayda narsalami muqovalashda foydalanish mumkun.





Sariq karton - oq kartondan ko'ra pishiqroq, egiluvchan, yaxshi qirqiladi, yelimdan ko'tarilmaydi. Turli ishlarda foydalaniladi.

Kulrang karton - oq va sariq kartondan pishiqroq, qirqish qiyin. Pichoq karton massasidagi qumdan tez o'tmaslashadi. Kartonning bu turidan o'ta pishqlikni talab qiluvchi narsalar tayyorlanadi.

Rangli karton - bu yupqa, egiluvchan, sathiga turli rangda jilo berilgan, ishlov berish oson va ko'rinishi chiroyli. Hajmi kichik narsalar, papkalar, muqovalar tayyorlash uchun quiy bo'lgan karton turidir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar turli qog'ozlarning asosiy jismoni xususiyatlari: rangi, qaliniigi, zichligi, siyohni ishlatish xususiyati, sathining xarakteri silliq, g'adur-budurligi bilan tanishadilar.

4. Qog'ozga ishlov berish usullari .





Qog'oz va kartonga ishlov berish usullari unchalik murakkab emas, bolalar ularni osonlik bilan o'zlashtirish oladilar. Qog'oz va kartonga ishlov berish yuzasidan egallangan malakalar keyinchalik barcha mehnat turlari bo'yicha texnologiya ta'limida keng qo'llaniladi.

Qog'ozni buklash usullari.

Qog'ozni teng ikkiga buklash uchun qog'oz stol yoki parta ustiga qo'yiladi va o'ng hamda chap qo'li bilan qog'ozni o'ziga yaqin turgan tomonining ikki uchidan ushlab, uni pastki uchlari bilan tenglashtiriladi. Bunda qog'ozning uchlarning qirrasini bir-biriga to'g'ri tushishi kerak. Ana shundagina qog'oz qo'l bilan tekislanib, uning bukilgan chizig'i ustidan tirnoq bosib yurgiziladi.

Qog'ozni bukilgan joyidan yirtish.

Qog'ozni yirtishdan oldin, avval ehtiyotlik bilan ochiladi, uning bir tomoni o'ng qo'l bilan bosilib, chap qo'l bilan bukilgan chiziqdan sekin yiriladi, Bukilgan chiziq ustiga chizg'ichni qo'yib, ham qog'ozni yirtish mumkin.

Qog'ozni bukilgan joyini pichoqda qirqish.

Qog'ozni buklab, tirnoq bilan bosib iz tushiriladi. Shundan so'ng uning buklangan chizig'ini o'ng tomonga qilib stol ustiga, uning orasiga pichoqni tiqib yurgiziladi.

Qog'ozni qaychi bilan qirqish.

Qaychi o'ng qo'lda ushlanadi. Ish vaqtida qaychini harakatsiz ushlab, qirqilayotgan qog'ozni, undagi kesish chizig'i aniq ko'rinishi uchun aylantirib turiladi.


Qog'ozni yopishtirish.

Stolning ustiga gazeta yozib, uning ustiga kerakli o'lchamda qirqib olingan rangli yoki istalgan qog'oz qo'yiladi va mo'yqalam yordamida o'rtasidan chetiga avval chap, so'ngra o'ng tomonga qarab elim suriladi. Yelimni tez, yupqa qilib suriladi. Yelim surilgan qog'ozni yopishtiriladigan predmetning ustiga qo'yib, uning ustidan g'ijimlanishlar bo'lmasligi uchun toza latta bilan bosib tekislanadi.


Qog'oz va kartonni o'lchash usullari. Texnologiya darslarida qog'ozni o'lchash usullari unchalik murakkab emas va ular matematika darslarida

qo'llanadigan asboblari yordamida bajariladi. Birinchi navbatda bu oddiy chizg'ich, uchburchak chizg'ich va tsirkuldir.




1. Qog'oz varaqlarini teng ikkiga buklash.



2. Qog'ozni qismlarga bo'lib yirtish va qirqish.



3. Qog'ozga chizish, rang berish va elimlash



1- Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Mavzu: Qog'ozga ishlov berish usullari. Qog'ozni buklash usullari.

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va amaliy ish natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo'yicha ko'rgazmali materiallar tayyorlaydi. Ish joyini tashkil etadi. Kerakli materiallari va ish qurollarini tayyorlaydi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi. Mashg'ulotga tayyorlanadilar. Mavzuga mos ko'rgazmalar tayyorlaydi. Ish joyini tashkil etadi. Kerakli ish qurollari va ish materiallarini tayyorlaydi
2. Amaliy ishga kirish bosqichi	Talabalarga amaliy faoliyatini baholash mezonlarini e'lon qiladi; "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, talabalar bilimlarini faollashtiradi; Qog'ozga ishlov berish usullari. Qog'ozni buklash usullari mavzusi bo'yicha yo'nalish beradi. Ma'lumotlarni umumlashtiradi va amaliy mashg'ulot bosqichiga o'tilishi ma'lum qilinadi. Tegishli adabiyotlardan foydalanish uchun ko'rsatma beradi.	Baholash mezonlari bilan tanishadi; Savollarga javob beradilar; Mavzu bo'yicha ma'lumotga ega bo'ladi; Mashg'ulot rejasini tuzib chiqadilar. Amaliy ishga tayyorlanadi. Qog'ozni buklash usullarini bajaradilar.
3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Talabalarga ish qurollaridan foydalanish qoidalarini eslatadi; Qog'ozga ishlov berish usullari. Qog'ozni buklash usullari texnologiyasini o'rgatadi;	Ish qurollaridan foydalanish qoidalarini eslaydi. Qog'ozga ishlov berish usullari texnologiyasini o'rganadi; Amaliy ish bilan

	Talabalar amaliy ish faoliyatini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlar beradi, yo'naltiradi. Amaliy mashg'ulot yuzasidan talabalarning savollariga javob beradi;	shug'ullanadi; Amaliy mashg'ulot yuzasidan savollar beradi;
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalarning bilimini mustahkamlash uchun savollar beradi; Javoblarini eshitadi va umumlashtiradi. Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Amaliy ish yuzasidan savollar beradi; Amaliy ish natijalarini tahlil qiladi; Ishni himoya qiladi va o'z-o'zini baholaydi. Mustaqil ish topshiriqlarni yozib oladilar.

Ushbu amaliy mashg'ulot bo'yicha talabalar bilimni mustahkamlash.

«Breyn-ring» metodi

«Breyn-ring» metodini qo'llashda amal qilish qoidalari:

- har bir komandadan sardorlar saylanib, ballarni hisoblab borishi;
- talabalar navbat bilan savollarga javob berishi;
- amaliy masalalarini yechishi;
- topshiriqni mustaqil tahlil qilishi;
- hodisalarni umumlashtirib, tegishli amaliy xulosa chiqarishi;
- o'z bilim doirasini kengaytirib, nazariyadan amaliyotga o'ta olishi va ularni o'zaro bog'lay olishi;
- topshiriqni bajarish yakunida sardorlar aro bahs-munozara yuritishi lozim.

Mavzu yuzasidan test bilan ishlash.

Qog'oz qachon paydo bo'lgan?

- A. XIX asrda
- B. XI asrda
- C. IX asrda
- D. XVII asrda

Qog`oz ishlab chiqarishda asosiy xomashyo nima?

A. somon, ip gazlama ishlatilgan eski qog`oz chiqindilar

B. Elim, somon,

C. Ip, soda, shisha, moy

D. Soda, shisha, moy elim, somon, ip, mum

Qog`ozning navi sifatli va yuqori bo`lishi ushun qanday kimyoviy moddalar qo`shiladi?

A. Rang uchun kaolin (oq loy), turli bo`yovchi moddalar, pishiqroq bo`lsin uchun kanifol yelimi qo`shiladi

B. Kaolin (oq loy), gazla-ma, poxol

C. Soda, Kaolin (oqloy), gazlama,

D. poxol kanifol yelimi, gazeta qog`ozi,

Ingliz kimyogari F.Xauton qachon yog`och massadan sellulozani ajratishga muvaffaq bo`ldi ?

A. 1857- yilda

B. 1800- yilda

C. 1700- yilda

D. 1850- yilda

Qog`ozdan qanday amaliy ishlar bajariladi?

A. Applikatsiya va mozaika ishlari, maketlar yasash, pape-mashe ishlari bajariladi.

B. Applikatsiya va mozaika ishlari va qog`ozdan maketlar yasaladi.

C. Applikatsiya.

D. Ko`rgazmali qurollar va maketlar yasaladi.

Texnologiya so`zining ma`nosi nima?

A. yunoncha –mahorat, san`at

B. lotincha- mahorat, san`at

C. inglizcha- mahorat, san`at

D. fransuzcha -mahorat, san`at

Texnologiya qanday fan?

A. xom-ashyo va materiallarga tegishli ishlab chiqarish qurollari yordamida ishlov berish yo'llari

B. xom-ashyo va materiallarga ishlov berish usullarini o'rgatish

C. xom-ashyo va materiallar ishlab chiqarishga o'rgatish

Amaliy ishlarga nimalar kiradi?

A. ma'ruza, seminar mashg'ulotlari

B. ekskursiya, laboratoriya ishlari

C. seminar, laboratoriya ishlari

Mavzu yuzasidan savollar

1. Qog'ozning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumot bering.

2. XVII asrda Evropada qog'oz kim tomondan kashf etildi?

3. Mihhat so'zining manosini aytib bering?

4. Piktografiya qanday ma'noni anglatadi?

5. Qog'ozning qanday turlarini bilasiz?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Turli qog'ozlardan namunalar tayyorlang.

2. Qog'oz turlarining xususiyatlarini o'rganing.

2-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Qog'ozni ketma-ket usulda buklab maketlar yasash.

Reja:

1. Qog'oz bilan ishlash usullari.

2. Qog'ozni ketma-ket buklash yo'li bilan o'yinchoq yasash .

Amaliy mashg'ulotining maqsadi: Qog'ozni ketma-ket buklash usulda maketlar yasashga o'rgatish.

Mavzuga oid tayanch iboralar: qog'ozni egib taxlash, buklash, vertikal buklash, karton, gorizontal buklash, burchak ostida buklash, o'zingga egish, yo'riqnoma, ta'lim metodi, qo'l mehnati.

Kerakli materiallar va ish qurollarini tayyorlash.

Metodik qo'llanmalar, slaydlar, ko'rgazmalar, turli rangli qog'ozlar to'plami, chizg'ich, qaychi, qalam, yelim.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. I.Mannopova, R.Mavlonova, N.Ibragimova **TEXNOLOGIYA** umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Toshkent-2017

2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma. 2007yil TDPU.

3. Matlab Tilavova "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi". Toshkent "Durdona nashriyoti". 2021

4. I.Mannopova, R.Mavlonova, N.Ibragimova **TEXNOLOGIYA** umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. Toshkent-2017

5. Matlab Tilavova "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi". Toshkent "Muharrir nashriyoti". 2019

6. Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P, Satbaeva "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" Darslik. T.; TDPU. 2015-yil.

7. Texnologiya 1-sinf :darslik /D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.

1.Qog'oz bilan ishlash usullari. Bolaning badiiy didini rivojlantirish bo'yicha ishlar oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida boshlanadi. Badiiy va mehnat faoliyati jarayonida bola bir qator grafik ko'nikmalarni o'zlashtiradi (qalam, chizg'ich, kvadrat, sirkul bilan ishlash), atrofdagi dunyo hodisalari va ob'ektlarini tahlil qilishni, qog'ozni chiziqlar bo'yicha qatlashni o'rganadi. Texnologiya darslarida kichik yoshdagi o'quvchilar materialga ishlov berish (katlama, kesish, yopishtirish), asboblardan (qaychi, elim, cho'tka va boshqalar) foydalanish bilan

bog'liq bir qator mehnat ko'nikmalarini egallaydilar. Bolalar ehtiyotkorlik bilan, tizimli ishlashni, qiyinchiliklarni engib o'tishni va kuchli irodali harakatlarni o'rganishlari kerak. Ularda mehnat madaniyati shakllanadi (kerakli materiallarni oldindan tayyorlaydi, ish joyini tartibga soladi, topshiriqni bajarish ketma-ketligini rejalashtiradi, darsdan keyin material va asboblarni tozalaydi). Bu mashg'ulotlarni tizimli, rejali o'tkazish, mustaqil badiiy faoliyatni tashkil etish, dastur talablarini izchil bajarish, tajriba orttirilgan sayin vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish bilan mumkin bo'ladi. Darsda ishlab chiqarish uchun ma'lum mahsulotlarni tanlayotganda, bolalar bilim va ko'nikmalarning qaysi aniq elementlari bo'yicha o'sishlarini, yangi narsalarni qilishni o'rganadigan narsalarni, oddiygina nima bilan shug'ullanishlarini, mavjud g'oyalardan qanday foydalanishlarini aniqlab olishlari kerak.

Qog'ozni bukish va yig'ish qog'oz bilan ishlashning eng oddiy usullari bo'lib, undan ko'plab qiziqarli o'yinchoqlar yasash mumkin. Eng oddiy jarayonlar-egib taxlash, buklash yo'li bilan qog'oz va kartondan ko'pgina qiziqarli va foydali narsalar tayyorlash mumkin. Qo'l mehnatida qog'ozni buklash yo'li bilan quyidagi buyumlar yasash mumqin. Masalan kolleksiya yig'ish uchun daftar, dars jadvali uchun ramkacha , qog'oz qiyqimlari uchun quticha, safarda chiqish uchun shapkacha, soyabonli shapkacha, budyonavka (budyonniychilar bosh kiyimi va shu shakldagi bolalar qalpog'i) qayiqcha, nayza, varraq. O'quvchilar ishning quyidagi usullarini o'zlashtirishlari o'rtacha chiziq bo'yicha qog'oz varag'ini buklab qo'yish, 2ga, 4ga, bo'lish qog'ozni burchagidan burchagiga taxlash, burchaqlarini yozib to'g'rilash: o'rtasidan chetlari tomon tekislagich bilan silliqdash bukilgan joydan qog'ozni yirtish. Bolalar ishni ana shunday usullarini bajarib, shakl bo'yicha qog'oz varag'ini ajrata bilishga odatlanadilar. To'g'ri chiziqlar bo'yicha qog'ozni bukish va yirtishga oid mashqlarni bajargan vaqtda o'qituvchi o'quvchilarni :

a)Qog'oz xossalari bilan tanishtiradi:chiziqni saqlagan holda qog'oz buklanadi,g'ijimlanadi,yirtiladi;


b)Qog'oz navlari bilan tanishtiradi;

d) asboblari, tekislagich, eng oddiy o'lchash asbobi bilan tanishtiradi.


Bukish va qatlama jarayoni faqat kichik ko'nikmalarni talab qilishiga qaramay, muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ish nafaqat aniqlikni, balki alohida operatsiyalarni bajarishda ehtiyotkorlik, aniqlikni ham talab qiladi.

Boshlashda siz ba'zi qoidalarni bilishingiz kerak. Aniq, tekis katlama chizig'ini olish uchun, egishdan oldin yaxshi dazmollanadi. Agar qatlama chizig'i varaqning o'rtasida olinishi kerak bo'lsa, u qarama-qarshi tomonlar va burchaklar bir-biriga mos keladigan tarzda qatlanadi. Qog'oz qalin bo'lsa (chizilgan qog'oz, chizma qog'ozi, ish stoli qog'ozi), katlama chizig'i bo'ylab kichik kesma qilish kerak. U quyidagicha amalga oshiriladi: chiziq bo'ylab metall o'lchagich qo'yiladi va qaychi yoki maxsus pichoqning uchi qatlama chizig'i bo'ylab ozgina harakat bilan tortiladi. Bu joyda kesma yoki truba hosil bo'ladi, ya'ni tolalar kesiladi yoki sinadi, shuning uchun qatlama tekis bo'ladi. Qog'oz, karton bo'laklardagi tolalarning yo'nalishi ishlab chiqarilgan qismlarning uzun tomoniga to'g'ri kelishi kerak. Buni egri, egri chizikli shaklga ega bo'lgan ishlarni bajarishda kuzatish ayniqsa muhimdir.


Qog'ozni vertikal buklash usuli



Qog'ozni gorizontal buklash usuli



Qog'ozni burchak ostida buklash usuli



2. Qog'ozni ketma-ket buklash yo'li bilan o'yinchoq yasash . Bolalarga qog'ozni teng buklash, to'rt buklash, buklangan joyni tekislash malakalari o'rgatib boriladi. Qog'ozni 16 kvadratlarga buklash, burchak va tomonlarini aniq joylashtirish, doirani diametri bo'ylab buklash va konus hosil qilib yopishtirishni o'rgatiladi. Masalan: qog'oz silindirni birlashtirib turli, murakkab bo'lmagan kompozitsiyalarni yasaydilar. Dastlabki mashg'ulotlarda o'tgan materiallar takrorlanadi, natijada bolalar qog'ozni teng buklash, tomonlarini qo'l bilan tekislash malakasi yanada mustahkamlanadi. 1-sinf "Texnologiya" darsligining 28-29-betlarida qog'oz bilan ishlash usullarini keng yoritilib berilgan. Eng oddiy jarayonlar –egib taxlash, buklash yo'li bilan qag'oz va kartondan ko'pgina qiziqarli va foydali narsalar tayyorlash mumkin. Qo'l mehnati dasturida qog'ozni buklash

yo'li bilan quyidagi buyumlarni yasash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan "Texnologiya yozuv daftarlari" joriy qilingan. Ushbu ish daftari yordamida darslikda berilgan o'quvchilar ushbu mavzularga mos topshiriqlarni bajaradilar. Unda berilgan topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil ishlashi natijasida qo'l motorikalarini rivojlantirishga imkon beradi.

2- Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi



Mavzu: Qog'ozni buklash usuli yordamida "Kuchukcha" ko'rgazmali quroli.

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va amaliy ish natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo'yicha ko'rgazmali materiallar tayyorlaydi. Ish joyini tashkil etadi. Kerakli materiallari va ish qurollarini tayyorlaydi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi. Mashg'ulotga tayyorlanadilar. Mavzuga mos ko'rgazmalar tayyorlaydi. Ish joyini tashkil etadi. Kerakli ish qurollari va ish materiallarini tayyorlaydi
2. Amaliy ishga kirish bosqichi	Talabalarga amaliy faoliyatini baholash mezonlarini e'lon qiladi; "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, talabalar bilimlarini faollashtiradi; Qog'ozni buklash usuli yordamida "Kuchukcha" ko'rgazmali qurolini tayyorlash mavzusi bo'yicha yo'nalish beradi. Ma'lumotlarni umumlashtiradi va amaliy mashg'ulot bosqichiga o'tilishi ma'lum qilinadi. Tegishli adabiyotlardan foydalanish uchun ko'rsatma beradi.	Baholash mezonlari bilan tanishadi; Savollarga javob beradilar; Mavzu bo'yicha ma'lumotga ega bo'ladi; Mashg'ulot rejasini tuzib chiqadilar. Amaliy ishga tayyorlanadi. Qog'ozni buklash usullari yordamida "Kuchukcha" ko'rgazmali qurolini tayyorlashni bajara dilar.
3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan

		fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Talabalarga ish quollaridan foydalanish qoidalarini eslatadi; “Kuchukcha” ko‘rgazmali qurolini tayyorlaydilar ; Talabalar amaliy ish faoliyatini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlar beradi, yo‘naltiradi. Amaliy mashg‘ulot yuzasidan talabalarning savollariga javob beradi;	Ish quollaridan foydalanish qoidalarini eslaydi. “Kuchukcha” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasini o‘rganadi; Amaliy ish bilan shug‘ullanadi; Amaliy mashg‘ulot yuzasidan savollar beradi;
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalarning bilimini mustahkamlash uchun savollar beradi; Javoblarini eshitadi va umumlashtiradi. Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Amaliy ish yuzasidan savollar beradi; Amaliy ish natijalarini tahlil qiladi; Ishni himoya qiladi va o‘z-o‘zini baholaydi. Mustaqil ish topshiriqlarni yozib oladilar.

“Aqliy hujum” metodi

1. Kvadrat shaklidagi rangli qog‘oz uchburchak shaklda buklanadi.
2. Hosil bo‘lgan uchburchak shakli teng ikkiga buklanadi.
3. Hosil bo‘lgan shaklning yuqori qismi qiya qilib chap tomonga buklanadi.
4. Buklangan uchburchakning yuqori qismidan 1 sm o‘lchamda o‘ng tomonga buklanadi.
5. Kuchukchaning tumshug‘ini chiqarish uchun hosil bo‘lgan shaklni 1 sm orqaga buklanadi.
6. Kuchukchaning dumini hosil qilish uchun shaklning pastki qismi 1 sm o‘lchamda o‘ng tomonga qaratib buklanadi.
7. O‘tirgan holdagi kuchukcha shakli hosil bo‘ldi.




“Stakan” maketini yasash bosqichlari.

1-Bosqich: Kvadrat, shakldagi rangli qog‘oz olinib, uni bitta diagonal bo‘yicha teng ikkiga buklanadi.


2-Bosqich: Hosil bo‘lgan uchburchakni diagonalida, uchlari dan birining uchi uchburchakning shu uchi qarshisidagi tomonga etguncha buklanadi.

3-Bosqich: Diagonaliga uchlardan ikkinchisi ham qarshisidagi tomonga yetguncha buklanadi.


4-Bosqich: Hosil bo‘lgan shaklning yuqoridagi ikki uchidan biri buklangan uchlar tomonga, ikkinchi uchi shaklning ichkarisiga buklanadi. Natijada “Stakan” hosil bo‘ladi.



“Mushukcha” maketini yasash bosqichlari.



“Kemacha” maketini yasash bosqichlari.



“Uycha” maketini yasash bosqichlari

1-bosqich: Tomonlari 10 sm bo‘lgan kvadrat shaklidagi qog‘oz olinadi.

Kvadrat shaklidagi qog‘ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.


2-bosqich: Hosil bo‘lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

148

3-bosqich: Hosil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuqori ikki tomonini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.


4-bosqich: Hosil bo‘lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tortib burchak hosil qilinadi. Uycha shakli hosil bo‘ldi, unga applikatsiya usulida deraza va eshik romlarini, tom qismiga tom shaklini rangli qog‘ozdan tayyorlab yelimlash kerak.

Quyuncha




Erkaklar kuylagi







Lola gull




Baliqcha




Pirpirak



Yelkanli qayiq



Qushcha



“Qushcha” maketini yasash bosqichlari

1-bosqich: Tomonlari 10 sm bo‘lgan kvadrat shaklidagi qog‘oz olinadi.

Kvadrat shaklidagi qog‘ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.

2-bosqich: Hosil bo‘lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

3-bosqich: Hosil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuqori va pastki tomonlarini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.

4-bosqich: Hosil bo‘lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tortib burchak hosil qilinadi. Xuddi shu bosqich hosil bo‘lgan shaklning pastki qismida ham bajariladi.

5-bosqich: Hosil bo‘lgan shaklni orqa tomoniga teng ikkiga buklasak qo‘shqayiq maketining shakli hosil bo‘ladi.

6-bosqich: Uchburchakning bitta uchini unga qarama-qarshi bo‘lgan ikkini tomonidagi uchiga birlashtiramiz, natijada qo‘shqayiqning o‘rtasida qolgan bitta uchi o‘z-o‘zidan yuqoriga ko‘tariladi.

7-bosqich: Yelkanli qayiqning yelkan qismini orasini ochib uchburchak shakliga keltirib teskarisiga buklasak, ikkita qo‘shaloq burchagini pastga qaratib ushlasak qushchaning shakli hosil bo‘ladi.

Taqdimotni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari			
	Ish joyini to‘g‘ri tashkil etilishi	Savollarga javob berish	Amaliy ishni bajarish texnologiyasi	Jami
	0,5-ball	0,5-ball	2-ball	3-ball
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				
5-guruh				

Ushbu amaliy mashg`ulot bo`yicha talabalar bilimini mustahkamlash.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Guruhlarda ishlash uchun yo`riqnoma:

1. Guruhda liderini saylang.
2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.
3. Egish bukish usuli bilan o`yinchoqlarni yasang.
4. Klassterni tuzing.
5. Taqdimotga tayyorlang.
6. Taqdimot o`tkazing.
7. Guruhlar ishini baholang.

<p>O`quv topshiriq 1-guruh Qog`ozdan buklash yo`li bilan turli mushukcha, yulduzcha o`yinchog`ini yasang.</p>	<p>O`quv topshiriq 2-guruh Qog`ozdan buklash yo`li bilan turli lolacha, do`ppi o`yinchog`ini yasang.</p>	<p>O`quv topshiriq 3-guruh Qog`ozdan buklash yo`li bilan turli kemacha, qurbaqa o`yinchog`ini yasang.</p>
---	--	---

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

Qog`ozni buklashda nimaga ahamiyat berish kerak?

- A.To`g`ri buklash va kesishga.
- B.Kesishga.
- C.Qirqish va chizishga.
- D.To`g`ri va tekis buklashga .

Qog`ozni oddiy usulda buklab qanday maketlar yasash mumkin?

- A.Stakan, buzoqcha boshi, tuzdon, quticha
- B.Lola, stakan, baliq, savatcha

C. Qurbaqa, samolyot, quyuncha

D. Pirpirak, qo'shqayiq, tuzdon

Rasm qog'ozini.....

A. 2-nomerli bo'lib, to'liq sellulozadan tayyorlanadi, uning oily naviga 25%latta qo'shiladi.

B. eng pishiq va qalin qog'oz

C. sathi silliq, yelim singdirilgan, namlikni kamroq singdiradigan

D. jilo berilgan qog'oz bo'lib, bir tomoniga yelim surtilgan

Millimeter qog'oz.....

A. sathi bosma to'r shaklida tayyorlanadi.

B. shaffoflik berish uchun mum va moy singdirilgan qog'oz.

C. yelimlanmagan qog'ozdir.

D. rangi va guli turlicha bo'lib muqovalash, narsalarning ustidan yelimlash, bezash ishlarida keng foydalaniladi.

Mavzu yuzasidan savollar:


1. Qog'ozning qanday xossalari bilasiz?

2. Qog'ozni to'g'ri chiziq bo'yicha bukish haqida ma'lumot bering.

3. Qog'ozni bukilgan joyidan yirtish qanday amalga oshiriladi?

Mavzu bo'yicha topshiriq: Qog'ozni ketma-ket usulda bukib uycha maketini yasash.

Uycha



3-amaliy mashg`ulot

Mavzu: Qog`ozni oddiy usullarda buklab maketlar yasash.

Reja:

1. Ish joyini to`g`ri tashkil etish .
2. Ish quollaridan to`g`ri foydalanishda texnika xavfsizlik qoidalari.
3. Qog`ozni oddiy usulda buklash asosida maketlar yasash.

Maqsad: Talabalarning chizma asosida qirqish, yasash malakalarini oshirish, shhizmalarni “o`qiy olishgao`rgatish. Buklash va taxlash asosida o`yinchoqni bezash malakalarini yanada rivojlantirish.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Qog`oz, cho`tka, chizg`ich, qalam, o`chirg`ich, burchagidan burchagiga egish, o`rta chiziq bo`yicha aniq taxlash, ishlov berish usullari, ishlash texnologiyalari , gigiyena, texnika xavsizligi qoidalari.

Kerakli materiallar va ish quollarini tayyorlash.

Metodik qo`llanmalar, slaydlar, ko`rgazmalar, turli rangli qog`ozlar to`plami, chizg`ich, qaychi, qalam, yelim.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P. Satbayeva. Mehnat va uni o`qitish metodikasi. Darslik .T.: TDPU. 2015.
2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P “Mehnat va uni o`qitish metodikasi” O`quv qo`llanma. 2007. TDPU.
3. Texnologiya 1-sinf : darslik /D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva. Toshkent: Respublika ta`lim markazi, 2021. – 72 b.

4. Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi”. Toshkent “Durdona nashriyoti”. 2021.

5. The Exquisite Book of Paper Flowers: A Guide to Making Unbelievably Realistic Paper USA, 2014 Blooms. USA, 2014. Paperback New York, Boston.

6. Texnologiya 1-sinf :darslik /D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva. Toshkent:Respublika ta’lim markazi, 2021. – 72 b.

1.Ish joyini to’g’ri tashkil etish.

Darsning moddiy-tashkiliy jihatdan ta’min etilishi ko’p jihatdan boshlang’ich sinf o’quvchilarining texnologik ta’limga tayyorlashning o’quv va tarbiyalovchi vazifalarini samarali hal qilishga bog’liqdir.Ko’pgina maktablarning ish tajribasi shuni ko’rsatadiki,bu masalaga jiddiy e’tibor berilgan joyda,texnologiya darslari etarli darajada yuqori saviyada o’tkaziladi.



Sinfda quyidagilarni jihozlash maqsadga muvofiqdir:

1)o’qituvchining ish o’rni;

2) o'quvchilarning ish o'rinlari;

3) yordamchi jihozlar.

O'qituvchi stolning ustiga dasturxon yozib, o'ng tomoniga qaychi, yelim uchun cho'tka, chizg'ich, qalam, o'chirg'ich joylashtiriladi. O'quvchining old tomoniga yelim, qiyqimlar uchun quticha va latta joylashtiriladi. O'quvchining chap tomoniga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plamini, qog'oz to'plamini va kerakli materiallar joylashtiriladi. Ish joyini to'g'ri tashkil etish qoidalari:

1) ish xonasida faqat o'qituvchining ruxsati bilan kiriladi;

2) har bir o'quvchi faqat o'z ish joyida ishlaydi;

3) ish faqat o'qituvchining ruxsati bilan boshlanadi;

4) ishni boshlashdan oldin ish joyini to'g'rilash, asboblarni qulay va to'g'ri joylashtirish;

5) ish vaqtida ish joyini tartibli saqlash;

6) o'tmas va buzuvchi asboblarni ishlatmaslik;

7) asboblarni asrash va ularni ishlatgandan so'ng tozalab va yuviladiganlarni yuvib, tartib qo'yish;

8) yasayotgan narsani oldingi safarisidan chiroyliroq, tartibliroq yasash;

9) ishni tugatgandan so'ng ish joyini tozalab, tartibli qilib qo'yish;

10) asboblardan foydalanayotganda o'qituvchi ko'rsatgandek ishlatish lozim.

2. Ish qurollaridan to'g'ri foydalanishda texnika xavfsizlik qoidalari.

Qo'l mehnati darslarida, odatda bir yoki ikki asbobdan foydalaniladi. Kerakli moslamalarni navbatchilar tarqatadi. Ish stolining ustiga diqqatni chalg'itadigan narsalar bo'lmasligi kerak. Barcha asboblarni javonda

saqlanadi. Asboblarni saqlanadigan moslamalarni, asboblarni o`quvchilar tozalab yuvib, artib, navbatchi o`quvchilarga topshiradilar. Ish xonasida o`quvchilarga asboblarni ishlatish va saqlash qoidalarini eslatib turuvchi plakat, eslatmalar osig`liq bo`lishi kerak. Texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilish baxtsiz hodisalarning oldini oluvchi ishonchli garovdir. Ish xonalarida ishlash va asboblardan foydalanish bo`yicha qoidalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

Bigizdan foydalanish qoidalari.

1. Bigizni o`rinsiz ishlatma.
2. Sirti silliq, sirg`anchik qattiq predmetlarni bigiz bilan keshma.
3. Teshiladigan predmetni qo`lingda ushlama, uni stol, taglik ustiga qo`yib tesh.


Pichoq bilan ishlash qoidalari.

1. Uchi yumaloq pichoqdan foydalan.
2. Pichoqni o`qituvchi ko`rsatganidek ishlat, kesganda qattiq bosma.


Nina bilan ishlash qoidalari.

1. Ninani ishlatib bo`lgach, maxsus nina yostiqchaga sanchib qo`y.
2. Ninanni hech qachon og`zingga olma.
3. Ortiqcha ninalarni ignadonda quruq holatda saqla.
4. Ishdan oldin va ishdan keyin ninalarni sanab ko`r, yetishmagan ninalarni albatta top.


Qaychi bilan ishlash qoidaladi.



Qaychining tig'li tomonini ochiq qoldirish mumkin emas.




Qaychining tig'li tomonini yuqoriga qaratib og'zi ochiq holda ushlamaslik kerak.




Qaychini tig'li tomonini yopgan holatda, band tomoni bilan uzatish lozim.

Qaychi bilan ishlash texnikasi.



Qog'ozni qirqish vaqtida qaychini emas, qog'ozni aylantirib kesing.




Qog'ozdan to'g'ri foydalaning.

Qaychidan foydalanish qoidalari.

1. Qaychini belgilangan joyda, belgilangan holatda saqlang.
2. Qaychini uchini yuqoriga qilib ushlamang.
3. Qaychini ochiq holda qoldirmang.
4. Qaychini yurib turganda ishlatmang.
5. Qaychini faqat yopilgan holda uchidan ushlab o'rtog'ingizga uzating.
6. Qaychini ishlatayotganda kesilishning yo'nalishi va materialni ushlab turgan chap qo'l barmoqlarini kuzatib turing.
7. Yaroqsiz qaychini ishlatmang, o'qituvchiga topshiring.

Yelim bilan ishlash qoidalari.

	Mo'yqalamni to'g'ri ushlang.
	Mo'yqalam uchini yelimga botirib oling va yelimni detalning teskari tomonidan surting.
	Ish jarayonida tozalikka rioya qilgan holda kerakli vositalar (karton, qog'oz, maxsus polimer tagliklar)dan foydalaning.
	Detal bir tekis yopishishi uchun salfetkadan foydalaning.
	Yelim qopqog'ini ochiq qoldirmang. Ish tugaganidan keyin, mo'yqalamni yaxshilab yuvib, taglikda quriting.



Amaliy mashg'ulot jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni unutmang.

Sanitariya-gigiena talablari

O'quvchi ish stolida ishlayotganda kiyimlarini kir qilmaslik uchun maxsus ish fartuklari va yenglar kiyib olinadi. Ish qurollaridan foydalanishda har bir asbobni yoki ish qurolini tartib bilan ishlatishni ya'ni bitta ish qurolidan foydalanib bo'lib o'z joyiga qo'yib, keyin ikkinchisini qo'lga olish talab etiladi. Bunda o'quvchini ish stoli batartib bo'ladi. Ish vaqtida o'quvchi qo'lini kiyimlariga, boshiga, yuziga tekkizmaslik, zarur bo'lganda qo'lini sochiqqa artib keyin qo'lni harakatlantirish mumkin. Ishni to'gatgandan so'ng ish qurollari va asboblarni o'z g'ilofi yoki idishlariga solib tartib bilan sumkaga yoki maxsus javonga joylashtirib qo'yishi kerak.

To'g'ri o'tirish qoidalari

O'quvchilar ish vaqtida to'g'ri o'tirish qoidalariga amal qilishlari kerak. Har bir asbob yoki ish qurolidan foydalanayotgan vaqtida qo'llarni keskin harakatlantirmaslik, o'rnidan turmaslik, orqasiga qaramaslik, yoniga o'girilmaslik, o'rtog'iga gapirmaslik kerak. Ish vaqtida gavdani to'g'ri tutish, bir tomonga qiyshaymaslik, oyoqlari to'g'ri joylashtirish, qo'llarni stol ustida harakatlantirish, asbob va ish qurollarni gavdasiga yaqin olib kelmaslik, ish stolida to'g'ri o'tirish kerak. Shunda o'quvchi charchab yoki toliqib qolmaydi.

Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Qog'ozni oddiy usulda buklash asosida maketlar yasash(samolyot,kemacha)

O'quv soati: 2 soat	talabalar soni: ta
O'quv mashg'uloti shakli	Amaliy mashg'ulot.
<i>Amaliy mashg'ulot tuzilishi:</i>	1.Ish joyni to'g'ri tashkil qilish. 2. Qog'ozni oddiy usulda buklash haqida ma'lumot berish. 3. Qog'ozni oddiy usulda buklash asosida maketlar(samolyot,kemacha)yasash darslarini tashkil etish tartibini tushuntirish.
<i>Amaliy mashg'ulotining maqsadi:</i>	1.O'quvchilarning chizma asosida qirg'ish,yasash malakalarini oshirish, shhizmalarni o'qiy olishga o'rgatish.

	2. Buklash va taxlash asosida o`yinchoqni bezash malakalarini yanada rivojlantirish.
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qog`ozni oddiy usulda buklash haqidagi bilimlarini aniqlash; • Ish joyini to`g`ri tashkil qilishni o`rgatish; • Qog`ozni egish, bukish ishlari bilan tanishtirish; • Qog`ozni oddiy usulda buklash asosida maketlar yasash (samolyot, kemacha) texnologiyasi bilan tanishtirish; • Natijalar taqdimoti, muhokama va baholashga o`rgatish. 	<p>Talabning amaliy faoliyatining natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qog`ozni oddiy usulda buklash haqidagi bilimlarini gapiradi va ega bo`ladi; • Ish joyini to`g`ri tashkil qilishni o`rganadi; • Qog`ozni oddiy usulda buklash asosida maketlar yasash (samolyot, kemacha) ishlari bilan tanishadi; • Qog`ozni oddiy usulda buklash asosida maketlar yasash texnologiyasini o`rganadi; • Natijalarni taqdimot qiladi, muhokama qiladi va baholanadi
<i>Ta`lim usullari</i>	Tushuntirish, savol-javob, amaliy ish, taqdimoti.
<i>Ta`lim vositalari</i>	Metodik qo`llanmalar, ko`rgazmalar, texnik vositalar, qog`oz, yelim, turli bezaklar
<i>O`qitish shakllari</i>	Yakka tartibda, kichik guruhlarda ishlash.
<i>O`qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo`ljallangan auditoriya
<i>Nazorat va baholash</i>	Savol-javob va amaliy ish

F a o l i y a t m a z m u n i	
<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<p>1. Amaliy ishga kirish.</p> <p>1.1. Talabalar faoliyatini baholash mezonlarini e`lon qiladi;</p> <p>1.2. Javoblarni umumlashtiradi va amaliy mashg`ulot bosqichiga o`tilishi ma`lum qiladi.</p>	<p>1.1. Baholash mezonlari bilan tanishadi</p> <p>1.2. Amaliy mashg`ulotga tayyorlanadi</p>
<p>2. Asosiy qism.</p> <p>2.1. Tezkor so`rov texnikasini qo`llab, talabalar bilimlarini faollashtirad;</p> <p>2.2. Qog`ozni oddiy usulda buklash asosida maketlar</p>	<p>2.1. Savollarga javob beradilar;</p> <p>2.2. Qog`ozni oddiy usulda buklash asosida maketlar</p>

<p>yasash(samolyot,kemacha)ishlarini bajarilish texnologiyasini o'rgatadi;</p> <p>2.2.Amaliy ish faoliyatini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlar beradi, yo'naltiradi.</p> <p>2.4.Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir talaba o'z ishlarini taqdim qilishlarini aytadi.</p> <p>2.5.Savol berishlarini aytadi.</p> <p>2.6.Savollarga javob beradi.</p>	<p>yasashni(samolyot,kemacha) o'rganadi;</p> <p>2.3.Amaliy ish faoliyatni boshlaydi;</p> <p>2.4.Har bir talaba o'z ishlarini taqdim qiladi;</p> <p>2.5.Savollar beradilar</p> <p>2.6.Tinglaydi va xulosa qiladi.</p>
---	--

Taqdimotni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar	<i>Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari</i>			
	<i>Ish joyini to'g'ri tashkil etilishi</i>	<i>Savollarga javob berish</i>	<i>Amaliy ishni bajarish texnologiyasi</i>	<i>Jami</i>
	<i>0,5-ball</i>	<i>0,5-ball</i>	<i>2-ball</i>	<i>3-ball</i>
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				
5-guruh				

Oddiy qog'oz origami - qayiqni qilish uchun sizga to'rtburchaklar qog'oz varag'i kerak bo'ladi. **“Elkanli qayiq” maketini yasash bosqichlari**

1-bosqich: Tomonlari 10 sm bo'lgan kvadrat shaklidagi qog'oz olinadi. Kvadrat shaklidagi qog'ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.


2-bosqich: Hosil bo'lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

3-bosqich: Hosil bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning yuqori va pastki tomonlarini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.

4-bosqich: Hosil bo'lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tortib burchak hosil qilinadi. Xuddi shu bosqich hosil bo'lgan shaklning pastki qismida ham bajariladi.

5-bosqich: Hosil bo'lgan shaklni orqa tomoniga teng ikkiga buklasak qo'shqayiq maketining shakli hosil bo'ladi.

6-bosqich: Uchburchakning bitta uchini unga qarama-qarshi bo‘lgan ikkini tomonidagi uchiga birlashtiramiz, natijada qo‘shqayiqning o‘rtasida qolgan bitta uchi o‘z-o‘zidan yuqoriga ko‘tariladi. Hosil bo‘lgan yelkanli qayiq shakliga qo‘shimcha ishlov beriladi. Qayiq tayyor bo‘ldi.



“Qushcha” maketini yasash bosqichlari

1-bosqich: Tomonlari 10 sm bo‘lgan kvadrat shaklidagi qog‘oz olinadi. Kvadrat shaklidagi qog‘ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.

2-bosqich: Hosil bo‘lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

3-bosqich: Hosil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuqori va pastki

tomonlarini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.

4-bosqich: Hosil bo'lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tortib burchak hosil qilinadi. Xuddi shu bosqich hosil bo'lgan shaklning pastki qismida ham bajariladi.

5-bosqich: Hosil bo'lgan shaklni orqa tomoniga teng ikkiga buklasak qo'shqayiq maketining shakli hosil bo'ladi.

6-bosqich: Uchburchakning bitta uchini unga qarama-qarshi bo'lgan ikkini tomonidagi uchiga birlashtiramiz, natijada qo'shqayiqning o'rtasida qolgan bitta uchi o'z-o'zidan yuqoriga ko'tariladi.

7-bosqich: Yelkanli qayiqning yelkan qismini orasini ochib uchburchak shakliga keltirib teskarisiga buklasak, ikkita qo'shloq burchagini pastga qaratib ushlasak qushchaning shakli hosil bo'ladi.

Origami usulida samolyot yasash

“Samolyot” maketini yasash bosqichlari

1-bosqich: Tomonlari 10 sm bo'lgan kvadrat shaklidagi qog'oz olinadi. Kvadrat shaklidagi qog'ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.

2-bosqich: Hosil bo'lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

3-bosqich: Hosil bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning yuqori va pastki tomonlarini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.


4-bosqich: Hosil bo'lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tortib burchak hosil qilinadi. Xuddi shu bosqich hosil bo'lgan shaklning pastki qismida ham bajariladi.

5-bosqich: Hosil bo'lgan shaklni orqa tomoniga teng ikkiga buklasak qo'shqayiq maketining shakli hosil bo'ladi.

6-bosqich: Uchburchakning bitta uchini unga qarama-qarshi bo'lgan ikkini tomonidagi uchiga birlashtiramiz, natijada qo'shqayiqning o'rtasida qolgan bitta uchi o'z-o'zidan yuqoriga ko'tariladi.

7-bosqich:Yelkanli qayiqning yelkan qismini orasini ochib uchburchak shakliga keltirib teskarisiga buklasak, ikkita qo‘shaloq burchagini pastga qaratib ushlasak qushchaning shakli hosil bo‘ladi.

8-bosqich: Qushcha shaklini ikkita qanotini orasini ochib shaklning yuqori qismini to‘g‘rilasak samolyot shakli hosil bo‘ladi.




Ushbu amaliy mashg'ulot bo'yicha talabalar bilimni mustahkamlash.

« Venn diagrammasi » metodi

DIAGRAMMA VENNANI TUZISH QOIDALARI

1. Qog'oz va kartonning 2-3 jihatlarini toping va ularga tavsif bering, ularga xos tomonlarini sanab o'ting.
2. Sanab o'tilgan ularga xos tomonlarni doira shaklidagi tegishli diagrammaga yozing.



Mavzu yuzasidan savollar:

1. Ish joyini tashkil etishda nimalardan foydalaniladi?
2. Ish qurollaridan to'g'ri foydalanish qoidalari haqida o'z fikringizni bildiring
3. Qo'l mehnati darslarida ishlashning umumiy qoidalari haqida ma'lumot bering.
4. Sanitariya-gigiena talablari nimalardan iborat?
3. Qaychidan foydalanish qoidalarini sanab bering.

Mavzu yuzasidan test bilan ishlash.

Qog'ozni buklashda nimaga ahamiyat berish kerak?

A.To'g'ri buklash va kesishga

B.Kesishga

C.To'g'ri va tekis buklashga

D.Qirqish va chizishga

Qog'ozni oddiy usulda buklab qanday maketlar yasash mumkin?

A.Stakan, buzoqcha boshi, tuzdon, quticha

B.Lola, stakan, baliq, savatcha

S.Qurbaqa, samolyot, quyoncha

D.Pirpirak, qo'shqayiq, tuzdon

Texnologiya ta'limi darslarida qog'ozdan stakancha yasash mashg'uloti qanday amalga oshiriladi?

A.Buklash orqali

B.Qirqish orqali

C.Qog'ozni qirqish va yelimlash orqali

D.Yelimlash orqali.

Texnika xavfsizligi qoidalari darslarida nimalar o'rgatiladi?

A.Ish qurollaridan foydalanish qoidalariga amal qilish

B.Ish jarayoniga ehtiyotkorlik bilan yondashish

C.Ishga to'g'ri munosabatda bo'lish

D. Ish qurollaridan foydalanish qoidalariga amal qilishi

Boshlang'ich sinfda ta'limning amaliy turlari nimalardan iborat?

A. Mehnatning o'z- o'ziga xizmat ko'rsatish turi, maishiy- xo'jalik mehnati

B. Tabiat quchog'idagi mehnat, qo'l mehnati

C. Barcha javoblar to'g'ri

Tabiat quchog'idagi mehnat nechi xil yo'l bilan amalga oshiriladi va qaysilar?

A. 2 xil: sinf va sinfdan tashqari ishar

B. 1 xil: faqat sinfda amalga oshiriladigan ishlar

C. 1 xil: faqat sinfdan tashqari amalga oshiriladigan ishlar

1-sinf o'quvchilariga texnologiya ta'limi darslarida necha ish turi o'rgatiladi?

A. 5 ta ish turi

B. 10 ta ish turi

C. 7 ta ish turi

D. 6 ta ish turi.

Texnologiya amaliy darslarida asosan nimalarga e'tibor berish kerak?

A. Ish sifatini ta'minlovchi omillarga.

B. Ish joyini tayyorlashga.

C. Aniqlik va tozalikka rioya qilishga.

D. Ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya qilishga.

Boshlang'ich sinf texnologiya xonasida nimalarga amal qilish kerak?

A.Ish joyini to'g'ri tashkil etishga, sanitariya-gigienik talablarga rioya qilishga, texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilishga.

B.Sanitariya-gigienik talablarga rioya qilishga va ish joyini to'g'ri tashkil etishga.

C.Ish joyini to'g'ri tashkil etishga, sanitariya-gigienik talablarga rioya qilishga.

D.texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilishga, navbatchilik qilishga.

Mavzu yuzasidan topshiriq:

1. Qog'ozni buklash yordamida baliq shaklini tayyorlang.
- 2.

O'zganday kometadan,
Samoda raketaday
Oyni aylanib zir-zir
Uchib yurgan fazogir.
Juda kuchli hamda mard
Va bilimli kosmonavt.

K. Turdiyeva

Samolyotim – kaptarim,
Osmon – zangor daftarim.
Qanot bilan yozaman,
Har doim parvozdaman.

She'rlarda keltirilgan kasb egalari nomini toping.

F	A	A	F	T	S	T	Z	F
K	Z	R	Z	K	Z	B	F	J
E	F	A	Z	O	G	I	R	S
V	J	Z	V	E	A	E	S	A
F	A	F	Z	S	F	R	R	F
K	O	S	M	O	N	A	V	T

67

4-amaliy mashg`ulot

Mavzu: Qog'ozni murakkab usullarda buklab maketlar yasash.

Reja:

1.O`quvchilarga texnologik ta`lim berishning o`ziga xos xususiyatlari.

2.Qog'ozni murakkab usullarda buklab maketlar(qurbaqa, gul,tulki)yasash .

Maqsad:1.O`quvchilarning chizma asosida qirqish,yasash malakalarini o`stirish,chizmalarni “o`qiy olish”ga o`rgatishni davom ettirish.

2.Buklab, yasash asosida o`yinchoqni bezash malakalarini yanada rivojlantirish.

Mavzuga oid tayanch iboralar:qog`oz,karton,qaychi,yelim,origami, modulli origami, oddiy origami,buklov,burchaklarning chizig`i bo`ylab bukish, “o” markazni hosil qilish, ketma ket buklash,ta`lim metodi.

Kerakli materiallar va ish qurollarini tayyorlash.

Metodik qo`llanmalar, slaydlar, ko`rgazmalar, turli rangli qog'ozlar to`plami, chizg`ich, qaychi, qalam, yelim.

Ish joyini to`g`ri tashkil etish: O`qituvchi stolning ustiga skater yoki dasturxon yozib, o`ng tomoniga qaychi, elim uchun cho`tka, chizg`ich, qalam, o`chirg`ich joylashtiriladi. O`quvchini old tomoniga elim, qiyqimlar uchun quticha va latta joylashtiriladi. O`quvchining chap tomoniga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to`plamini, qog'oz to`plamini va kerakli materiallar joylashtiriladi. Ish jarayonida sanitarik-gigienik talablarga va ish qurollaridan foydalanish qoidalariga rioya etish kerak

Foydalanish uchun adabiyotlar:

- 1.Sanoqulov X.R,Xodieva D.P.Satbaeva “Mehnat va uni o’qitish metodikasi” Darslik .T.;TDPU.2015-yil.
2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P “Mehnat va uni o’qitish metodikasi” O’quv qo’llanma. 2007yil TDPU.
- 3.Texnologiya 1-sinf :darslik /D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva. Toshkent:Respublika ta’lim markazi, 2021. – 72 b.
- 4.Texnologiya 2-sinf :darslik / X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 80 b.
- 5.Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi”. Toshkent “Muharrir nashriyoti”. 2019
6. Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi”. Toshkent “Durdona nashriyoti”. 2021
- 7.The Exquisite Book of Paper Flowers: A Guide to Making Unbelievably Realistic Paper USA, 2014 Blooms. USA, 2014.Paperback New York, Boston.

1. O’quvchilarga texnologik ta’lim berishning o’ziga xos

xususiyatlari.O’quvchilarga texnologiyadan ta’lim berishning xususiyatli va ahamiyatli tomonlari mavjud ular ta’lim berishning asosiy vazifalarini o’z ichiga oladi. Sunday vazifalar sirasiga o’quvchilarda materiallarga ishlov berish ko’nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvoffiq bilimlarni berishdir. O’quvchlarda materiallarga ishlov berish ko’nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvoffiq bilimlarni berish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o’quvchilar hali eng oddiy buyumlarni tayyorlash operatsiyalarni eslab qolishga qodir emaslar.

Hosil qilingan ko'nikmalar malakalarni ham shakllantirib boradi. Bularning barchasi takror mashq qilishlar natijasida takomillashib boradi. O'qituvchi o'quvchilarning xatolarga yo'l qo'ymasligi uchun ularni o'z-o'zini nazorat qilishga odatlantirib borish lozim. Topshiriqlarni bajarish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni o'zlari topib uni tuzatmagunlaricha hamda bajarilgan ishlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilmagunlaricha o'quvchilardan ishni qabul qilmaslik lozim. Amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida yangi ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Buning uchun qo'l asboblaridan foydalanishning o'ziga xosligini, materiallarni xususiyatini, yasalayotgan buyumlar xususiyatini bilish katta ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya fanidan amaliy ishlar tuzilishi quyidagi tartibda olib boriladi:

1. O'quvchilar oldiga mehnat topshirig'ining maqsadi va mavzusini qo'yish:

a) darslarda bajarishga mo'ljallangan buyum yoki ishning o'quvchilar hayotining yoki bu tomoni ehtiyojlarini qoniqtirishdagi ahamiyati;

b) belgilangan ishni yaxshi bajarish uchun qanday yangi bilim va ko'nikmalarni egallash lozimligini ko'rsatish.

2. Ish o'rni, asbob-uskuna, material, namuna, doskadagi chizmalarning tayyorligini tekshirish, ishni yaxshi va uyushgan holda tashkil etishga yordam beruvchi qonun-qoidalarni eslatish.

3. Bajariladigan mehnat vazifalarini oldindan rejalashtirish:

a) namuna, qism va detallar miqdorini tahlil qilish, kerakli materillarni, berilgan o'lchovlarni tayyorlash;

b) buyum tasviri va uning detallarini namunadan tanish, tushunish, barcha o'lchovlarni va ishchi chiziqlarini topish va o'qish, ya'ni ishni buyumni tayyorlash uchun qanday harakatlarni amalga oshirish, qanday asboblarni ishlatish, mehnat harakatlarini ketma-ket bajarish tartibini aniqlash.

4. Materialni namuna, berilgan o'lchovlar bo'yicha belgilab chiqish. O'quvchilarni belgilash tartibini bilishlari va uni doskada belgilash bosqichlarini bajarayotgan yoki buyumni ko'rsatib tushuntirayotgan o'qituvchi bilan bir vaqtda bajarilishi lozim.

5. Belgilash ishlarini bajarish. Detallarni tayyorlash, detallarni moslash va uning barcha detallarini yig'ish; detallardan buyumni yig'ish jarayonida; buyum va uning detallariga ishlov berish jarayonida zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni egallash.

6. Harakatlanayotganda tekshirish, xato va kamchiliklarni tuzatish, ishni baholash.


7. Darsga yakun yasash, yangi vazifalar qo'yish.

Texnologiya fanida amaliy ish mashg'ulotlari tashkil qilishning bu tartibidan o'qituvchi mazkur dars uchun belgilangan aniq buyum yoki ishning xususiyatlarini nazarda tutib foydalanadi.

Amaliy ishlar jarayonida o'quvchilarda mehnatga qiziqish va muhabbat singdirib boriladi. Mehnatga qiziqishning muhim talablaridan biri ishlanadigan buyumni to'g'ri tanlashdir. O'quvchilar tayyorlanadigan narsalarni nimaga kerakligi, qayerda ishlatilishini bilishlari kerak.

O'quvchilarni ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, o'z ishlarini rejalashtira bilishlari, materiallni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan unumli foydalanishlari, o'qituvchi ko'rsatmasiga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozada saqlashlari, mashg'ulotdan so'ng sinfni tozalab qo'yishlariga odatlantirib boorish kerak.

Barcha fanlarda qo'llanilgani kabi mehnatning amaliy ish turlarida ko'rsatmali vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.. Jumladan, texnologiya darslari da turli xil namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, turli predmetlarning modellari, shuningdek texnika vositalaridan foydalaniladi.



2.Qog'ozni murakkab usullarda buklab maketlar(qurbaqa, gul,tulki)yasash



QURBAQA. Qurbaqa asosan suvda va quriqlikda yashaydi. Qurbaqalar, cho'l, dasht, o'rmon va tog'larida (4,800 m gacha balandlikda) keng tarqalgan. U asosan ariq, hovuz bo'ylarida, botqoqlik, to'qayzorlarda yashaydi. Qurbaqa yashil, jigarrangda uchraydi. Turli xil hasharotlar va boshqa umurtqasizlar bilan oziqlanadi. Quruqlikda qishlaydi. Uning tanasi doimo nam bo'lib turadi. Qurbaqa suvga urug' qo'yadi va ko'payadi. Uning bolalari soni juda ko'p bo'ladi. Ular itbaliq deb nomlanadi. Eng katta qurbaqa Aga deb nomlanadi, u zaharli hisoblanadi. Qurbaqa turli mamlakatlarda turli ko'rinishlarda uchraydi. Qurbaqalar bog' va poliz ekinlariga ziyon keltiradigan hasharotlarni qirib foyda keltiradi. Janubiy Amerikaning mahalliy aholisi aga qurbaqalari zaharini o'q-yoylarga surishgan. Qurbaqalarning 6 turi Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgan.





Sakrovchi qurbaqa o`yinchog`ini tayyorlashning instruksion texnologik xaritasi





Faoliyat bosqichlari	O`qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi.	Mashg`ulotga tayyorgarlik ko`radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Sakrovchi qurbaqa o`yinchog`ini tayyorlash texnologiyasining mazmun mohiyatini ochib, yo`nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko`rsatma beradi.	Mashg`ulot rejasini tuzib chiqadilar. Sakrovchi qurbaqa o`yinchog`ini tayyorlaydi.
3. O`z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg`ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali ko`mak beradi.	Har bir talaba o`z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga




		tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o'z-o'zini baholaydi.

Qog'ozni murakkab usulda buklab qurbaqa maketini tayyorlashning texnologik xaritasi





T/r	Bajaridigan ish mazmuni	Tasviri	Kerakli jihozlar
1.	Qog'oz burchaklarida (ikki tomondan ham)flamaster bilan nuqtalar qo'yib chizing,Yuqoriga ko'k pastki burchaklariga qizil.		8x13 smli to'g'ri burchakli qog'oz,qizil,sariq va ko'k flamasterlar.
2.	Qog'ozni ichki tomonini yuqoriga qilib stol ustiga qo'ying va o'ng ko'pburchakni yuqori qismini qog'ozni sariq cheti bilan moslashtirib buking vaqog'ozni oching		Qo'l mehnati

3	Endi xuddi shu tariqa chap ko'kburchakni yuqori qismini qog'ozni o'ng tomonini birlashtirib buking va uni oching		Qo'l mehnati
4	Yashil nuqtalar bilan yangi diognal bukilmalarni chetlarini belgilab chizing. Nuqtalarni rasmdagi kabi qog'oz chetiga qo'ying.		Qo'l mehnati
5	Qog'ozni yuza qismini yuqori qilib qo'ying va ko'kburchakli shunday bukingki shu burchak sariq rang bilan belgilangan nuqta bilan mos tushsin va qog'ozni yoying		Qo'l mehnati
6	Punkt bo'yicha bajarilgan oxirgi buklam ustidan qo'llaringiz bilan silab chiqilgach so'ng uni orqaga itaring. Buklovni o'rtadaqi qismini oldinga chiqishi kerak		Qo'l mehnati


7	<p>Qog'ozni yuqori ko'k nuqtali qismini shunday buklangki ko'k rangli burchaklar orqa qismida bo'lib sariq rang bilan belgilangan nuqtalarga mos kelsin, qog'ozni yassi qilib tekislang.</p>		Qo'l mehnati
8	<p>Qog'ozni ikkinchi tomonini aylantiring. Ko'k burchaklarni yuqori burchakka qarab. Bunda qurbaqani panjalari hosil bo'ladi.</p>		Qo'l mehnati
9	<p>Qog'ozni chap va o'ng tomonlarini o'rtaga qarab chetlari yonma-yon tushganday qilib buking. Bukilgan joyni bosib mustahkamlang..</p>		Qo'l mehnati
10	<p>Oq qog'ozni uzunasida to'rtga buklab qog'ozni pastki qismiga 4 sm qoldirib buklang, endi uni orqaga buklang. Buklangan joy oldingi panjalarni pastki qismida joylashsin Buklangan</p>		Qo'l mehnati

	joyini bosib chiqing.		
11	Shu tomonni yuqoriga qarab shunday bukinki, oxirgi buklam qog'ozni qismi darajasida bo'lsin		Qo'l mehnati
12	Endi shu tomonni orqaga (pastga) bukingki qog'ozni chetlari oldinga buklash bilan mos tushsin. Qurbaqa turishi uchun old panjalarini chetga qarab sekin torting.		Qo'l mehnati
13	Qurbaqalarga ko'z yopishtiring. Yashil doirachalarni qoziqchalar kesib oling. Qurbaqa orqasini chetiga barmoq bilan sirg'aluvchi harakat qilib bosing. Qurbaqa sakraydi		Qo'l mehnati

Qurbaqa




Gul maketini tayyorlashning texnologik xaritasi





Tulkicha maketini tayyorlashning texnologik xaritasi

Лиса



Jirafa o'yinchog'ini tayyorlashning texnologik xaritasi





“Mu’jizalar maydoni” o’yini

“Mu’jizalar maydoni” o’yinida kasb nomlari harflar sonini hisobga olib qog’ozga katakchalar chiziladi. O’ylangan kasb nomi shu katakchalar soni teng kelishi kerak. O’quvchilar katakchalarning soniga qarab harflarni aytishadi. O’qituvchi o’quvchilar aytgan harflarni katakchalarda borligini ko’rsatadi. Keyin o’quvchilar qolgan harflarni ham aytib o’tishadi. Oxirida o’quvchilar kasb nomini topishadi.

1. **“Muammoli vaziyat”** metodi – ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo’yicha ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo’yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo’lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so’nishiga, o’zlariga bo’lgan ishonchlarining yo’qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo’llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o’rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi quyidagicha:

-Muammoli vaziyat tavsifini keltirish:

-Guruhlariga bo’lish;

-Guruhlarning muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlash:

-Guruhlarning muammoli vaziyatning oqibatlari to’g’risida fikr yuritishi;

-Guruhlarning muammoli vaziyatning yechimini ishlab chiqish;

-To’g’ri yechimlarni tanlash.

Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat: Ta’lim beruvchi mavzu bo’yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi. Kichik guruhlar

berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

Muammoning yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi. “Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- Ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- Ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarini topishni o‘rganadilar;
- Ta’lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- Ta’lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- Ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- Qo‘yilgan muammo ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- Ko‘p vaqt talab etiladi.

Vaziyat

Azamat tikishga juda ham qiziqadi. Bir kuni texnologiya fanini darsida u o‘qituvchiga:

- Ustoz, men tikuvchilik hunariga juda ham qiziqaman. Shu hunarni o‘rganmoqchiman, - dedi.

Buni eshitgan sinfdoshlari esa rosa kulishdi. Azamat sinf xonasidan yig‘lab chiqib ketdi. O‘qituvchi bo‘lsa bolalarga yaxshi ish qilmaganliklarini, har bir inson o‘zi qiziqqan hunarni o‘rganishi mumkinligini buni hech qanday uyat joyi

yoʻqligini tushuntirdi. Yurtimizda ham tikuvchilik bilan shugʻullanadigan koʻplab yigitlar borligini, ular bizning milliy matolarimizdan zamonaviy liboslar yaratib yurtimiz nomini jahonga tanitayotganliklarini aytib oʻtdi. - Eng asosiysi, - dedi oʻqituvchi, — oʻz kasbining yetuk mutaxassisi boʻlish. Chin dildan qiziqib, harakat qilgan insongina oʻzi xohlaganlariga erishadi. Bolalar ayb ish qilganliklarini tushunishdi va Azamatni topib undan uzr soʻrashdi.

Mavzu yuzasidan test topshirigʻi

1-sinflarda texnologiya taʼlimi darsi necha soatni tashkil etadi?

A.34 soat

B.28 soat

C.36 soat

D.18 soat

2. Qogʻozni buklash usulida tuzdon maketi necha bosqichdan iborat?

A.4 bosqichdan

B.3 bosqichdan

C.8 bosqichdan

D.10 bosqichdan.

3. “Texnologiya” 1-sinf darsligining muallifi kimlar?

A. X.R.Sanakulov,D.P.Xodiyeva,A.R.Sanakulova

B. D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva.

C. I.Mannopova,D.Sayfurov

D. X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva

4. “Texnologiya” 2-sinf darsligining muallifi kimlar?

- A. X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva
- B. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva.
- C. X.R.Sanakulov,D.P.Xodiyeva,A.R.Sanakulova
- D. I.Mannopova,D.Sayfurov

Mavzu yuzasidan savollar.

- 1.“Origami” so’zi qanday ma’noni bildiradi?
2. 1-bo`lib origami san`atini kim kashf etgan ?
- 3.Origaming qanday turlarini bilasiz ?
4. origami uslubini izohlab bering.
- 5.Qog`ozdan buklash yo`li bilan qanday o`yinchoqlar yasash mumkin?

Mavzu bo`yicha topshiriq:

1. Qog`ozni murakkab usulda buklab jirafa maketini bosqichlar bilan yasang.
- 2.Yasalgan maketni estetik did bilan bezang.

5-amaliy mashg`ulot

Mavzu: “Oq qush” modulli origamisini qurish-yasash.

Reja:

- 1.Origami turlari va texnikasi haqida ma’lumot berish.
- 2.Qog`ozni murakkab usullarda buklab oqqush shaklini qurishyasash texnologiyasi

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: : Talabalarga chizma asosida qog`ozdan “Oq qush” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasini o‘rgatish.

Mavzuga oid tayanch iboralar: Ta'lim, ta'lim-tarbiya, texnologik ta'limi, mehnat ta'limi maqsadi Qog'oz, karton, qaychi, turli rangli qog'oz, chizg'ich, qalam, flamaster, ishlash texnologiyalari, buklov chizig'i, burchaklarning chizig'i bo'ylab bukish.

Kerakli materiallar va ish qurollarini tayyorlash.

Metodik qo'llanmalar, slaydlar, ko'rgazmalar, turli rangli qog'ozlar to'plami, chizg'ich, qaychi, qalam, yelim.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P. Satbayeva. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. Darslik .T.: TDPU. 2015.
2. Matlab Tilavova "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi". Toshkent "Muharrir nashriyoti". 2019
3. The Exquisite Book of Paper Flowers: A Guide to Making Unbelievably Realistic Paper USA, 2014 Blooms. USA, 2014. Paperback New York, Boston.
4. Texnologiya 1-sinf :darslik /D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva. Toshkent:Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.
5. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma. 2007. TDPU.
6. Matlab Tilavova "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi". Toshkent "Durdona nashriyoti". 2021
7. Texnologiya 2-sinf :darslik / X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 80 b.

Ish joyini to'g'ri tashkil etish: O'qituvchi stolning ustiga skater yoki dasturxon yozib, o'ng tomoniga qaychi, elim uchun cho'tka, chizg'ich, qalam, o'chirg'ich joylashtiriladi. O'quvchini old tomoniga elim, qiyqimlar uchun quticha va latta joylashtiriladi. O'quvchining chap tomoniga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plamini, qog'oz to'plamini va kerakli

materiallar joylashtiriladi. Ish jarayonida sanitarik-gigienik talablarga va ish qurollaridan foydalanish qoidalariga rioya etish kerak

1. Origami turlari va texnikasi . Origami (yaponcha "buklangan qog'oz") - qog'oz shakllarini yig'ishning qadimiy san'ati. Origami san'ati 1-bo`lib qadimgi Xitoyda ixtiro qilingan. Qog'ozni buklab maketlar yasash-origami san'ati turiga kiradi. Tasvir varag'ini chiroyli tarzda katlash qobiliyati uzoqda antik davrda paydo bo'ldi. An'anaga ko'ra, qadimgi Xitoy ushbu dekorativ va amaliy san'atning vatani hisoblanadi. Ushbu san'at IX-asr boshlarida yapon madaniyatining asosiy qismlaridan biriga aylandi. Qog'oz origami - bu qiziqarli va hayajonli faoliyat. Uni kattalar ham, bolalar ham sevadilar. Origami ayniqsa 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun foydalidir. Ushbu san'at turi qo'lda epcillikni, fazoviy tasavvurni va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Origami turlari va texnikasi xilma xil. Origami - bu britaniyalik origami rassomi Jon Smit tomonidan ixtiro qilingan origami uslubi bo'lib, u faqat tog' va vodiy burmalaridan foydalanish bilan cheklangan. Oddiy origami ingliz ustasi Jon Smit tufayli paydo bo'ldi. Texnikaning o'ziga xosligi shundaki, ish jarayonida faqat qatlamali "tog'" va "vodiy" uslub ishlatiladi. Ushbu uslub boshlang'ich origamistlar yoki vosita muammolari bo'lganlar uchun yaratilgan. Bunday cheklash ushbu san'atning standart xilma-xilligiga juda yaxshi tanish bo'lgan murakkab usullardan foydalanishga imkon bermaydi. Natijada, oddiy origami haqiqatan ham o'rganishni boshlash uchun murakkab bo'lmagan texnikadir. Qog'ozni buklab maketlar yasash maqsadi tajribasiz origami san'atkorlari, shuningdek, cheklangan vosita qobiliyatlari bo'lgan o`quvchilar uchun ishni oson qilishdir. Yuqorida keltirilgan cheklov shuni anglatadiki, murakkab texnikalarning ko'pini (hammasini emas) amalga oshirish mumkin emas, bu esa o'xshash effektlarni beradigan yangi usullarni ishlab chiqishga majbur qiladi. Qog'ozni murakkab usullarda buklab maketlar yasash bolalar uchun juda foydali. Bolalar tezda nafaqat ramzlarni va asosiy raqamlar, balki butun sxemalar bilan ishlashni o`rganadi. Origami

go'zallikni rivojlantiradi, nozik vosita qobiliyatlari barmoqlar, xotira, diqqat, aniqlikni, bolaning fazoviy fikrlashini o`stiraditiradi. O'yinchoqni iloji boricha yaxshiroq qilish istagi bolalarni sxemalar bo'yicha harakatlarni bajarishda ehtiyotkorlik, aniqlik va ravshanlikka o'rgatadi. Vaqti-vaqti bilan siz bolalar asarlari ko'rgazmalarini tashkil qilishingiz mumkin - ular chiroyli kompozitsiyalarni yaratadilar. Bundan tashqari, bola bu o'yinchoqni o'zi yasaganini tushunishdan mamnun, ular ota-onalariga o'zlari yaratgan buyumlari bilan maqtanishdan xursand bo'lishadi. Origamining mashhur navlaridan biri modulli origami bo'lib, unda butun shakl ko'plab bir xil qismlardan (modullardan) yig'iladi. Har bir modul klassik origami qoidalariga muvofiq bir qog'oz varag'idan yig'iladi, so'ngra modullar ularni bir-biriga joylashtirish orqali ulanadi, bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan ishqalanish kuchi strukturaning parchalanishiga yo'l qo'ymaydi. Modulli origami eng keng tarqalgan ob'ektlaridan biri kusudama, uch o'lchamli sharsimon jismdir.

“Oq qush” modulli origamisini qurish-yasash bo’yicha amaliy mashg’ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
Kartonning qolgan qismining o'rtasi aniqlanadi.

Ikkinchi karton olinib, uni tserqo'l yordamida doira chiziladi va qirqib olinadi.

Doira teng 8 ta bo'lakka bo'lib chizib olinadi.


Har bir bo'lak o'rtasiga kichik doirachalar chizib va qirqib olinadi. Har bir doira orasidagi masofa bir xil bo'lishi kerak.

Kartonning qolgan qismining o'rtasi aniqlanadi.


Ikkinchi karton olinib, uni serkul yordamida doira chiziladi va qirqib olinadi.

Doira teng 8 ta bo'lakka bo'lib chizib olinadi.

Har bir bo'lak o'rtasiga kichik doirachalar chizib va qirqib olinadi. Har bir doira orasidagi masofa bir xil bo'lishi kerak.



Katta doirani kartonning o'rtasiga bolt yordamida mahkamlanadi. Doira ichidagi kichik doirachalarning shakli kartonga chiziladi. Chizilgan doira ichiga lotin alifbosidagi harflar soat strelkasiga teskari ravishda 4-5 tadan joylashtiriladi



Chizilgan doirachalarning bittasi bir xil rangga bo'yab qo'yiladi.

Doiralardagi harflar telefon raqamiga o'xshatib terilib so'zlar hosil qilinadi.

Bitta doira to'g'risiga rangli qog'ozdan strelka yelimlab qo'yiladi.

Hosil bo'lgan so'zlarning rasmlari strelka ko'rsatgan doiraga to'g'risiga yopishtiriladi.

Har bir doira to'g'risiga rasmlar yopishtirib bo'lgandan so'ng rasmlarning nomlari telefon trubka shaklidagi karton tagiga yozib qo'yiladi.

Ko'rgazmaning doirasi aylantirib tekshirib ko'riladi, xato va kamchiliklar to'g'irlanadi.

«O'rgimchak ini » metodi

Mashg'ulotda ushbu metoddan foylanishda ishtirokchilar uchun bosh kiyim (kepka) va 1 ta kalava ip kerak bo'ladi.

- Har bir savol yuzasidan o'quvchilardan ketma-ketlikda javob olinadi.
- Fikrlar bildirishda uzoq vaqt to'xtab qolgan yoki umuman fikrlari tugagan o'quvchi bosh kiyimini yechib, o'yindan chiqarilganligiga ishora kilinadi va keyin bu o'quvchiga ip koptok sifatida otilmaydi.
 - Oxirda qolgan o'quvchi g'olib hisoblanadi.
 - O'yin yakunida o'qituvchi har bir kalava ipning o'quvchi qo'lida qolgan soniga qarab baholaydi.

1.Telefon qachon,kim tomondan ixtiro qilingan?

2.Kartoning xususiyatlari qanday ?

3. Telefonning qanday turlarini bilasiz?
4. Telefon dastlab qayerda ixtiro qilingan ?
5. Kundalik turmushda telefonning o`rni haqida fikringizni bildiring.
6. Rangli karton xususiyati qanday?
7. Kartondan qanday ko`rgazmali qurollar tayyorlash mumkin?
8. Ko`rgazmali qurollardan nima uchun foydalaniladi?

Test topshiriqlari:

1. Ko`rgazmali qurollarni tayyorlashda qanday qog`ozlardan foydaniladi?

- A. Qalin qog`oz va yupqa karton
- B. Rangli va gulqog`ozi
- C. Karton va zar qog`ozi
- D. Gofre qog`ozi

2. Darsga qo`yiladigan maqsadlarini belgilang?

- A. Ta`limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad
- B. Ta`limiy, tashkiliy, yakuniy maqsad
- C. Ta`limiy, tarbiyaviy, tashkiliy maqsad
- D. Rivojlantiruvchi, tashkiliy maqsad

3. Kichik guruhlarda ishlash shaklini aniqlang

A. Bunda, o`quvchilarning hammasi bir xil topshiriqni bajarishdan iboratdir, shuning uchun o`qituvchi bir vaqtning o`zida butun gruppaga ishiga rahbarlik qila oladi.

B.Bunda, gruppaning har biri 3-4 kishilik guruhlariga bo'linishi, bu guruhlarning har qaysisi o'z topshirig'ini bajarishi nazarda tutiladi.

C., hamma o'quvchilar har xil ishni bajarishdan iborat.

D.O'quvchilar individual ish bajaradi.

4. Qaychidan foydalanish talablari.

A.Qaychini uzatganda teskarisini qilib uzat, harakatlanganingda ishlatma.

B.Qaychini harakatlanganingda ishlatma.

C.Qaychini o'z o'rnida ishlat

D.O'tmas qaychidan foydalanma

Mavzu bo'yicha topshiriqlar:

1.Ko'rgazmali qurolidan foydalanish qoidasini tushuntirib bering.

2.O'qish darslarida foydalanish yuzasidan misollar keltiring.

10-amaliy mashg'ulot

MAVZU: Kartondan "Olmali daraxt" ko'rgazmali qurolini tayyorlash

Reja:

1. Kartondan "Olmali daraxt" ko'rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasi

Mavzuga oid tayanch iboralar: qog'oz, karton, qog'ozni egib taxlash, buklash, vertikal buklash, gorizonta buklash, burchak ostida buklash, o'zingga, o'zingga egish, yo'riqnoma, ta'lim metodi .

Maqsad: Kartondan "Olmali daraxt" ko'rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasini o'rganish

Kerakli materiallari va ishqurollarini tayyorlash. Metodik qo'llanmalar, slaydlar, ko'rgazmalar, rangli qog'oz to'plami, chizg'ich, qaychi, qalam, oq qog'oz, sochiq.

Ish joyini to'g'ri tashkil etish: O'qituvchi stolning ustiga skater yoki dasturxon yozib, o'ng tomoniga qaychi, elim uchun cho'tka, chizg'ich, qalam, o'chirg'ich joylashtiriladi. O'quvchini old tomoniga elim, qiyqimlar uchun quticha va latta joylashtiriladi. O'quvchining chap tomoniga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plamini, qog'oz to'plamini va kerakli materiallar joylashtiriladi. Ish jarayonida sanitarik-gigienik talablarga va ish qurollaridan foydalanish qoidalariga rioya etish kerak

Foydalanish uchun adabiyotlar:

- 1.Sanoqulov X.R,Xodieva D.P.Satbaeva “Mehnat va uni o’qitish metodikasi” Darslik .T.;TDPU.2015-yil.
- 2.The Exquisite Book of Paper Flowers: A Guide to Making Unbelievably Realistic Paper USA, 2014 Blooms. USA, 2014.Paperback New York, Boston.
3. Texnologiya:3-sinf uchun darslik/X.R.Sanakulov,D.P.Xodiyeva,A.R.Sanakulova.-T.:”Sharq”,2019.-80b.
4. Texnologiya 2-sinf : darslik / X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 80 b.
- 5.Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi”. Toshkent “Muharrir nashriyoti”. 2019
6. Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi”. Toshkent “Durdona nashriyoti”. 2021
7. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P “Mehnat va uni o’qitish metodikasi” O’quv qo’llanma. 2007yil TDPU

“Olmali daraxt” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash amaliy mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi. Ma’lumotlar umumlashtiradi va amaliy mashg‘ulot bosqichiga o‘tilishi ma’lum qiladi.	Kichik guruhlarni tashkil etishadi; Savollarga javob beradilar; Mavzu bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘ladi; Amaliy ishga tayyorlanadi.
2. Mavzuni ishlash bosqichi	“Olmali daraxt” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash mavzusi bo‘yicha yo‘nalish beradi. Talabalar faoliyatini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlar beradi, yo‘naltiradi. Amaliy ishni yakunlab taqdimot boshlanishini e’lon qiladi va amaliy ishlarini taqdim qilishlarini aytadi. Savollarini berishlarini aytadi. Savollarga javob beradi va qisqacha xulosalar qiladi	Topshiriqlar bo‘yicha faoliyatni boshlaydi. ko‘rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasini o‘rganadi; Amaliy ish bilan shug‘ullanadi; Talabalar o‘z ishlarini taqdim qiladilar; Savollar beradilar;
3. O‘z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg‘ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya beradi. Qo‘shimcha savollar beradi;	Har bir talaba o‘z guruhida maslahatlashgan

	Javoblarini eshitadi va umumlashtiradi.	holda mazmuniga qarab axborotlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Amaliy ish yuzasidan savollarga javob beradi; Mustaqil ish yuzasidan maslahatlar beradi. Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Amaliy ish yuzasidan savollar beradi; Mustaqil ish topshiriqlarni yozib oladilar. Ishni himoya qiladi va o‘z-o‘zini baholaydi.

Taqdimotni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari			
	Ish joyini to‘g‘ri tashkil etilishi	Savollarga javob berish	“Olmali daraxt” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash	Jami
	0,5-ball	0,5-ball	2-ball	3-ball
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				

Aqliy hujum

- Kartondan “Olmali daraxt” ko‘rgazmali quroli nimalardan tayyorlanadi?
- Kartondan “Olmali daraxt” ko‘rgazmali qurolini qanday maqsadda foydalanadi?
- Kartondan “Olmali daraxt” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash qanday yasaladi?
- ko‘rgazmali qurolini tayyorlashda bezak berishda qanday materiallardan foydalansa bo‘ladi?

O`qituvchi o`quvchilarning javobini umumlashtirgan holda suhbatga yakun yasab, rangli karton, rangli qog`oz tanlab olib ko`rgazmali qurolini tayyorlash usullari haqida tushunchalar beradi. Bunday ko`rgazmali qurolini tayyorlash, qanday maqsadda foydalanish, uning tayyorlanishi to`g`risida ma`lumotlar beradi. Amaliy ishni boshlashdan oldin o`quvchilarning darsga tayyorligini tekshiradi.

Kartondan “Olmali daraxt” ko`rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasi

1. 30x44 sm o`lchamdagi karton qog`ozi olinadi.
2. Karton qog`ozini usti oq qog`oz bilan muqovalanadi.
3. Kartoning yuqori va pastki qismidan bir-biriga to`g`ri qilib 8 ta teshik belgilanadi va nina yordamida teshib chiqiladi.
4. Ochilgan teshiklardan nina yordamida qalinroq ip o`tkaziladi va kartoning orqa tomonidan iplar bir-biriga bog`lab qo`yiladi. Ip teshiklardan bemaolol harakatlanishi kerak.
5. Boshqa kartondan olma shakllari qirqib olinadi va shakllarga rangli qog`oz yopishtiriladi.
6. Qirqib olingan olma shakllari iplarga bittadan elimlab chiqiladi va orqa tomoniga oq qog`ozdan yopishtiriladi.
7. Olma shakllarini elimlashda ipning tuguni kartoning pastki qismida joylashgan bo`lishi kerak. Olma shakllarini esa kartoning yuqori qismidan elimlanadi.
8. Kartondan katta savat shakli chizib qirqib olinadi va o`nga ranglar yordamida ishlov beriladi.
9. Tayyor bo`lgan savatcha asos kartoning pastki qismiga chetlarini elimlab yopishtiriladi. Iplar o`tgan joyi elimlanmaydi.
10. Iplarni harakatlantirganda olma shakllari yerga va savatchaga tushishi kerak.

11. Olma shaklining orqa tomoniga ya'ni oq qog'ozlar ustiga har xil misollar, mashqlar va topshiriqlar yozib qo'yish mumkin.
12. O'quvchi ipni harakatlantirganda olma shakli savatchaga tushdi
13. O'quvchi shu olma shakli orqasidagi topshiriqni yozadi.

“Ishbop o`yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo'riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
2. Ta'lim oluvchilarni o'yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollari bo'yicha tayyorgarlik ko'radilar.
5. Ta'lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o'yinni amalga oshiradilar. Ta'lim beruvchi o'yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
6. O'yin yakunida ta'lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Kartondan “Olmali daraxt” ko'rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasi necha bosqichda amalga oshiriladi?
2. “Olmali daraxt” ko'rgazmali qurolini qaysi fanlarda ishlaydi?
3. Ko'rgazma qurollarning fanlar bo'yicha ma'lumotlarni o'zlashtirishda qanday ahamiyati bor?
4. Ko'rgazmalarni tayyorlashda qanday jihozlardan foydalanasiz?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar:

1. Kartondan “Olmali daraxt” ko`rgazma qurolini tayyorlang.

2. Yashiringan kasb nomini toping.

o	l	s	t	a	f	sh	yu	x
t	k	y	ya	k	s	g	l	o
s	u	r	a	t	k	a	sh	a
o	l	s	t	a	f	sh	yu	x

11-amaliy mashg`ulot

MAVZU: Kartondan “O`yla, Izla, Top” ko`rgazmali qurolini tayyorlash

Reja:

1. Kartondan “O`yla, Izla, Top” ko`rgazmali qurolini tayyorlash.

O`quv mashg`ulotning maqsadi: Talabalarga karton va uning turlari haqida ma`lumot berish va kartondan ko`rgazmali qurollar tayyorlash texnologiyasini o`rgatish.

Mavzuga oid tayanch iboralar :

qog`oz, karton, ko`rgazma, jo`pchak, janr, nasr, obraz, syujet, g`oyaviy mazmun, modulli origami, karton, flomasterlar, ishlov berish usullari, ishlash texnologiyalari, metod.

Ta`lim vositalari: karton qog`ozi, turli rangli qog`oz, chizg`ich, qaychi, qalam, flomaster, skoch, serkul, yelim.

Ko`rgazmalar: Metodik qo`llanmalar, slaydlar, turli rasmlar, kartondan yasalgan ko`rgazmali quroldan namunalar (“Telefon”, “Olmali daraxt”, “O`yla, izla, top”).

Ish joyini to'g'ri tashkil etish: O'qituvchi stolning ustiga skater yoki dasturxon yozib, o'ng tomoniga qaychi, elim uchun cho'tka, chizg'ich, qalam, o'chirg'ich joylashtiriladi. O'quvchini old tomoniga elim, qiyqimlar uchun quticha va latta joylashtiriladi. O'quvchining chap tomoniga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plamini, qog'oz to'plamini va kerakli materiallar joylashtiriladi. Ish jarayonida sanitarik-gigienik talablarga va ish qurollaridan foydalanish qoidalariga rioya etish kerak

Foydalanish uchun adabiyotlar:

- 1.Sanoqulov X.R,Xodiyeva D.P.Satbayeva. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. Darslik .T.: TDPU. 2015.
2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P “Mehnat va uni o'qitish metodikasi” O'quv qo'llanma. 2007. TDPU.
3. Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi”. Toshkent “Durdona nashriyoti”. 2021
4. Texnologiya 1-sinf : darslik /D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva. Toshkent:Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.
- 5.Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi”. Toshkent “Muharrir nashriyoti”. 2019
- 6.Texnologiya 2-sinf :darslik / X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 80 b.

“O`yla, Izla, Top” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash amaliy mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi. Ma’lumotlar umumlashtiradi va amaliy mashg‘ulot bosqichiga o‘tilishi ma’lum qiladi.	Kichik guruhlarni tashkil etishadi; Savollarga javob beradilar; Mavzu bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘ladi; Amaliy ishga tayyorlanadi.
2. Mavzuni ishlash bosqichi	“O`yla, Izla, Top” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash mavzusi bo‘yicha yo‘nalish beradi. Talabalar faoliyatini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlar beradi, yo‘naltiradi. Amaliy ishni yakunlab taqdimot boshlanishini e’lon qiladi va amaliy ishlarini taqdim qilishlarini aytadi. Savollarini berishlarini aytadi. Savollarga javob beradi va qisqacha xulosalar qiladi	Topshiriqlar bo‘yicha faoliyatni boshlaydi. ko‘rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasini o‘rganadi; Amaliy ish bilan shug‘ullanadi; Talabalar o‘z ishlarini taqdim qiladilar; Savollar beradilar;
3. O‘z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg‘ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya beradi. Qo‘shimcha savollar beradi;	Har bir talaba o‘z guruhida maslahatlashgan

	Javoblarini eshitadi va umumlashtiradi.	holda mazmuniga qarab axborotlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Amaliy ish yuzasidan savollarga javob beradi; Mustaqil ish yuzasidan maslahatlar beradi. Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Amaliy ish yuzasidan savollar beradi; Mustaqil ish topshiriqlarni yozib oladilar. Ishni himoya qiladi va o‘z-o‘zini baholaydi.

Taqdimotni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari			
	Ish joyini to‘g‘ri tashkil etilishi	Savollarga javob berish	“Sanoq sonlari” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash	Jami
	0,5-ball	0,5-ball	2-ball	3-ball
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				

Blits savollari

1. Kartondan ko‘rgazmali qurol tayyorlash uchun ish joyini tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?
2. Karton qog‘ozi deb qanday qog‘ozga aytiladi?
3. Kartonning xususiyatlari qanday?
4. Kartonning qanday turlari mavjud?
5. Oq kartonning xususiyati qanday?

6. Sariq karton xususiyati qanday?

7. Kul rang karton xususiyati qanday?

8. Rangli karton xususiyati qanday?

9. Kartondan qanday ko'rgazmali qurollar tayyorlash mumkin?

10. Ko'rgazmali qurollardan nima uchun foydalaniladi?

Blits xarita

№	Talaba ning javobi	To'g'ri javob	Noto'g'ri javob	Javoblar
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				

Jami:

10-9 ta – “0,5”, 8-7 ta – “0,4”, 6 ta – “0,3”, 5 ta – “0,25”, 4 ta – “0,2”.

Talaba _____ ball

Kartondan «OYLA, IZLA, TOP» ko’rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasi

1. 30x44 sm o’lchamdagi karton qog’ozini olinadi.
2. Karton qog’ozini usti ok qog’oz bilan muqovalanadi.
3. Karton qog’ozini 5sm yuqori qismiga «Uyla, izla, top» deb yozib quyiladi.
4. Kartonning pastiki qismiga 5 sm rangli kartondan turli shaklda cho’ntakcha qirqib olinib yelimlab quyiladi.
5. Kartonning qolgan qismini teng 9 bo’lakka o’lchab chizib olinadi.
6. Har bir bo’lakning pastki qismiga sonlarni joylashtirish uchun rangli kartondan turli shakllarda chuntakcha qirqib yelimlab chiqiladi.
7. Har bir bo’lak rangli qog’oz yordamida ajratib olinadi.
8. Rangli kartondan turli shakllarda shablon yasab 1-9 gacha bo’lgan sonlarni yozib chiqamiz.
9. Har bir shablonni chetki qismi skochlanib chiqilsa ham bo’ladi.
- 10.1-9 gacha bo’lgan sonlarni ko’rgazmali qurolga shunday tartibda joylashtirishimiz kerakki har qanday yo’l bilan qo’shib hisoblanganda 15 raqami chiqishi kerak.

Mavzu bo'yicha test savollari:

1. Boshlang'ich sinflarda qog'oz va karton bilan ishlash darslarining mazmuni qaysi javobda to'liq ifoda etilgan.

A. Qog'oz va karton buklash, tiklash, qiyish, yelimlash, bo'yash, applikatsiya, yassi figuralar, xajmiy figuralar yasash amaliy darslar.

B. Qog'oz va karton buklash, tiklash, qiyish, yelimlash, bo'yash darslar va kartondan yassi figuralar, hajmi figuralar, applikatsiyalar, siluetlar, archa o'yinchoqlari kabi mavzular.

C. Qog'ozdan figuralar, hajmi figuralar, applikatsiyalar, siluetlar, archa o'yinchoqlari kabi mavzular.

D. Kartondan yassi figuralar, hajmi figuralar, applikatsiyalar, siluetlar, archa o'yinchoqlari kabi mavzular.

2. Mehnat darslarida qanday ko'rsatmali vositalardan foydalaniladi?

A. Namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, modellar, texnik vositalar

B. Namuna, rasm

C. Chizma, sxematik namuna

D. Modellar, texnik vositalar

3. Ko'rsatmalilik metodiga qaysilar kiradi?

A. Namoyish qilish, amaliy ko'rsatish, ekskursiya

B. Namoyish qilish

C. Amaliy ko'rsatish

D. Ekskursiy

4.Yupqa egiluvchan sathiga turli rangda jilov berilgan. Ishlov berish oson vako‘rinishi chiroyli. Ushbu ta’rif qanday karton haqida?

A.rangli karton

B.Filtr qog‘oz

C.Gul qog‘oz

D.oddiy karton

5.Grafik ko‘rgazmali qurolni qaysilari texnologiya darslarida foydalaniladi?

A.Texnologik karta, ish chizmasi, yaqqol tasvir,Jadvallar, Plakat, Ish chizmasi

B.Aksonometrik tasvir, Sxematik chizma

C.Jadval texnologik karta, eskiz chizma

D.Plakat, eskiz, yaqqol tasvir

6.Tarqatma materialning qaysilaridan boshlang‘ich sinf mehnat darslarida foydalaniladi?

A.Andaza, shablon, buyum yoyilmalari

B.Anketa, test, buklet205

C.Kartochka, perfokata

D.Fotosurat, gazeta va jurnal materiallari

Mavzuga oid savollar

1. sinf mehnat darslari dasturi necha bo‘limdan iborat?
2. O‘quvchilarni mehnat darslarida ish unumini oshirish necha bosqichda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi?
3. Kartonning bu navidan o‘ta pishiqlikni talab qiluvchi narsalar tayyorlanadi. Ushbu ta’rif qaysi karton haqida?

4. O'quvchilar biror ijodiy mehnatga kirishishlaridan oldin pedagog o'qituvchilar zimmasiga qanday shartlarni amalga oshirish talablari qo'yiladi?

Mavzuga oid topshiriq:

- 1.Kartondan «UYLA. IZLA TOP» ko'rgazmali qurolini tayyorlash
- 2.Yashiringan anjomlar nomini toping.

N	D	A	A	R
R	A	A	R	D

12-amaliy mashg'ulot

MAVZU:Kviling usulida tabriknoma tayyorlash

Reja:

1. Kviling usulida shakllar yasash haqida ma'lumot berish.
2. Kviling usulida tabriknoma tayyorlash.

Maqsad: Kviling usulida tabriknoma tayyorlash texnologiyasini shakllantirish.

Mavzuga oid tayanch iboralar: Qog'oz, karton, kichik qaychi,ishlab chiqarishdagi o'rni, ishlov berish usullari, buklash, kviling, qog'ozni egib taxlash, ishlash texnologiyalari, ish joyini tashkil etish, texnika xavfsizligi qoidalari, dekorativ san'at.

Asboblar: karton qog'ozi, turli rangli qog'oz, chizg'ich, qaychi, qalam, flamaster, skoch, serkul,yelim.

Ko'rgazmalar: metodik qo'llanmalar, slaydlar, turli rasmlar, kartondan yasalgan ko'rgazmali quroldan namunalar.

Ish joyini to'g'ri tashkil etish: O'qituvchi stolning ustiga skater yoki dasturxon yozib, o'ng tomoniga qaychi, elim uchun cho'tka, chizg'ich, qalam, o'chirg'ich joylashtiriladi. O'quvchini old tomoniga elim, qiyqimlar uchun quticha va latta joylashtiriladi. O'quvchining chap tomoniga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plamini, qog'oz to'plamini va kerakli materiallar joylashtiriladi. Ish jarayonida sanitarik-gigienik talablarga va ish qurollaridan foydalanish qoidalariga rioya etish kerak

Foydalanish uchun adabiyotlar:

- 1.Sanoqulov X.R,Xodieva D.P.Satbaeva “Mehnat va uni o'qitish metodikasi” Darslik .T.;TDPU.2015-yil.
2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P “Mehnat va uni o'qitish metodikasi” O'quv qo'llanma. 2007yil TDPU.
3. Texnologiya 1-sinf : darslik /D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva. Toshkent:Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.
4. Texnologiya 2-sinf : darslik / X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 80 b.
- 5.Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi”. Toshkent “Muharrir nashriyoti”. 2019
6. Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi”. Toshkent “Durdona nashriyoti”. 2021
7. The Exquisite Book of Paper Flowers: A Guide to Making Unbelievably Realistic Paper USA, 2014 Blooms. USA, 2014.Paperback New York, Boston.

Qog'oz kvilinglari - bu hunarmandchilikning sevimli mashg'ulotidir. Ushbu qog'oz san'ati qog'oz ixtiro qilinganidan beri mavjud. Kviling - bu ingliz tilidan

tarjima qilingan qush patidir. Ushbu uslub Evropada XV asr oxirlarida paydo bo'lgan. O'sha paytda, rohiblar qush patlari bilan yaltiroq qirralar bilan qog'ozni o'ralgan holda shu tarzda g'ayrioddiy medalonlarni yasashgan. Qog'oz kviling - bu qog'ozni uzun ingichka chiziqlar bilan kesish, qismlarni turli xil shakllarga aylantirish va chimchilash, so'ngra shakllarni yopishtirib, dekorativ san'atni shakllantirish san'ati. Qog'ozli kviling loyihalari kartalarni, qutilarni, sovg'a sumkalarini, rasm ramkalarini bezash uchun ishlatilishi mumkin. Kviling - bu yangi boshlanuvchilar uchun eng yaxshi hunarmandchilik loyihasidir. Ushbu badiiy asarning kelib chiqishi ma'lum emas. Ba'zilar kviling Xitoyda qog'oz ixtiro qilinganidan keyin boshlangan deb hisoblashadi, boshqalari bu hunarmandchilik XIII asrda paydo bo'lgan deb o'ylashadi. Keyinchalik qog'oz kviling XVIII asrda zodagonlar ayollari uchun "munosib" san'at sifatida mashhur bo'lib qayta tiklandi. Kviling san'ati Evropadan Amerikaga tarqaldi va amerikalik kolonistlar tomonidan dekorativ usul sifatida ma'qullandi. Kviling mashhurligini qayta tikladi va bugungi kunda u san'at turiga ko'tarildi. Kviling-bu badiiy texnika, ikki taraflama rangli qog'oz tasmasi asosida bajarilgan amaliy ish, gugurt cho'piga yoki tishkovlagichga o'rab chiqiladigan va turfa xil shaklga aylantirilgandan keyin 7 turli xil figura ko'rinishida yelimlanadi.

Bu texnika tasviri asosida (nafis gullar bejirim naqshlar, ertak qahramonlari, hayvonlar va baliqlar, qushlar) tabriknomalarni, albomlarni, qutichalarni, rasm uchun ramkalarni bezash mumkin.





Kviling shakllari: Tabletka asosiy shakl bo'lib, ana shu shakl asosida boshqa shakllar qilinadi. tomchi shaklida ko'z shakli, barg, gul shakli tomchi shakli asosida tayyorlanadi. Asos kartonining usti qismiga tayyorlangan shakllar joylashtiriladi. Shakllar bosqima-bosqich belgilangan joyga pva yelimi asosida yelimlanadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari kviling texnikasining mashg'ulotlarini birinchi bosqichdagi qog'ozni o'rash jarayoni qiyin bo'lishiga qaramay, juda maroq bilan bajarishadi.

Kviling usulida turli narsalar shaklini yasashda uni bosqichma-bosqich o'rgatish kerak. Bajarilgan har bir yangi shaklni bir nechta mashg'ulotda olib borish kerak.

Mashg'ulotni boshlashdan oldin o'quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun "Aqliy hujum" metodi asosida savollar beriladi.

1. Tabriknomalarning qanday turlarini bilasiz?
2. Tabriknomalar nima maqsadda ishlatiladi?
3. Kvilling usulida qanday shakllar yasash mumkin?
4. Kvilling usulida tabriknoma yasashda qanday qog'ozdan foydalaniladi?
5. Qanday bayramlarni bilasiz?

Tabriknomalar insonlarni yaxshi kunlarida tug'ilgan kunlarda, bayramlarda, to'y-marosimlarda o'z tilaklarni, yaxshi niyatlarini bildirish uchun taqdim etiladi.

Tabriknomalar turli bayramlar uchun turli shakllarda va o'lchamlarda ishlab chiqiladi. Tabriknomalar asosan karton qog'oziga tayyorlanadi. Muqovasiga turli bezaklar (gullar, ramziy belgilar va boshqa shakllar) bilan bezatiladi. Asosan 8-mart va Navro'z bayramlariga gullar tasvirlangan tabriknomalardan, tavallud kunlariga esa insonga tilak bildiruvchi ramziy belgilar tasvirlangan tabriknomalar taqdim etiladi. Yangi yil bayramida qish, qorbobo va sovg'alar tasvirlangan tabriknomalardan, turli kasbiy bayramda kasblar, gullar, turli ramziy belgilar tasvirlangan tabriknomalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tabriknoma yasash uchun bizga quyidagi ish qurollari va materiallar kerak bo'ladi.





Kerakli xomashyo va asboblarni tayyorlab oling.

BAYRAMGA TABRIKNOMA YASASH




Kerakli ish quollarini tayyorlab oling.




Tabriknoma yasash uchun o'lchamlarni to'g'ri belgilab oling.



O'lchami va rangini to'g'ri tanlang.




4




5




6



7



8



9



Oyijonim, qutlug' bo'lsin,
Go'zal bahor bayramingiz.
Quchog'ingiz gulga to'lsin,
Shodliklarga har damingiz.

Ollobergan Po'lat





10



11



12



13



14



15

) Kviling usulida gullar tayyorlashda maqullanib qirqilgan qog'ozdan foydalaning.



16



17



18



19



20



Har xil ranglardagi gul bargini tayyorlang.



Avvalo, gul kurtaklari, keyin savat, so'ng bo'shliqlarni yashil barglar bilan to'ldiring.



Kviling usulida tabriknoma tayyorlash.

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakllantiradi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Kviling usulida tabriknoma tayyorlash texnologiyasining mazmun mohiyatini ochib, yo'nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko'rsatma beradi.	Mashg'ulot rejasini tuzibchiqadilar. Kviling usulida tabriknoma tayyorlaydi.
3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya beradi.	Har bir talaba o'z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axborotlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o'z-o'zini baholaydi

Taqdimotni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruh	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari			
	Ish joyini to'g'ri tashkil etilishi	Savollarga Javob	Kviling usulida tabriknoma tayyorlash	Jami

	0,5-ball	0,5-ball	2-ball	3-ball
1				
2				
3				
4				

Tabriknomalar insonlarni yaxshi kunlarida tug'ilgan kunlarda, bayramlarda, to'y-marosimlarda o'z tilaklarni, yaxshi niyatlarini bildirish uchun taqdim etiladi. Tabriknomalar turli bayramlar uchun turli shakllarda va o'lchamlarda ishlab chiqiladi. Tabriknomalar asosan karton qog'oziga tayyorlanadi. Muqovasiga turli bezaklar (gullar, ramziy belgilar va boshqa shakllar) bilan bezatiladi. Asosan 8-mart va Navro'z bayramlariga gullar tasvirlangan tabriknomalardan, tavallud kunlariga esa insonga tilak bildiruvchi ramziy belgilar tasvirlangan tabriknomalar taqdim etiladi. Yangi yil bayramida qish, qorbobo va sovg'alar tasvirlangan tabriknomalardan, turli kasbiy bayramda kasblar, gullar, turli ramziy belgilar tasvirlangan tabriknomalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tabriknoma yasash uchun bizga quyidagi ish qurollari va materiallar kerak bo'ladi.



Kerakli xomashyo va asboblarni tayyorlab oling.

Ushbu mavzu yuzasidan “ **Kim chaqqon?**” oyinidan foydalanib talabalar bilimini mustahkamlash.

Guruh ikkiga bo‘linib, har bir guruhdan bittadan o‘quvchi doska oldiga chiqariladi. Bir o‘quvchi fanga tegishli atamani o‘zining maydoniga yozadi. Keyingi o‘quvchi oldingi o‘quvchi yozmagan qo‘shimcha atamani ishlatadi. O‘yin shu tariqa davom etadi, adashgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. Kimning maydonida eng ko‘p to‘g‘ri, mantiqiy bog‘langan tushunchalar paydo bo‘lsa, shu jamoa g‘olib sanaladi. O‘yin xotirani mustahkamlashda va takrorlashda qo‘llaniladi.

Test savollari:

Texnologiya darslarida ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish bu?

- a. Stol ustiga salfetka yozib, o‘ng tomoniga kerakli asbob uskunalar cha’ tomoniga kerakli materiallar to‘‘lami, old tomoniga chiqindilar uchun quticha, yelim va sochiq qo‘yiladi.
- b. Bolalarni harakatlariga halaqit bermaydigan qilib darsga kerakli ish qurollarini tayyorlab qo‘yish
- c. .Sanitariya-gigiena, texnika xavfsizligi, to‘g‘ri o‘tirish qoidasiga amal qilish.
- d. Stol ustiga qog‘oz yozib darsga kerakli bo‘lgan buyumlarni tayyorlab qo‘yish

Texnologiyaga amaliy tayyorlash qanday amalga oshiriladi?

- a. Asbob va uskunalardan foydalana bilish
- b. Texnologiya malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish
- c. Texnologiya ta‘limining muhim omillaridan biridir
- d. Asbob va uskunalardan foydalana bilish, materialga ishlov bera olish, xatoni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘iray olishga o‘rgatish

Texnologiya fani o‘qituvchisining vazifasi

- a. O'quvchilarni jamoada ishlashga o'rgatish.
- b. O'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatish.
- c. Amaliy texnologiya ko'nikmalarini shakllantirish
- d. O'quvchilarda texnologiya malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, kasb-hunarga qiziqtirish ishlarini amalga oshirish

Texnologiya ta'limining asosiy vazifalari nima?

- a. Bolaning yoshini, aqliy, imkoniyatini takomillashtirish
- b. Texnologiyaga o'rgatish, psixologik tayyorlash
- c. Texnologiya ta'limining asosiy vazifalari nima?
- d. Bolalarning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy qobiliyatlarini tarkib toptirish

Mavzu bo'yicha savollar :

- 1.Kviling qaysi so`zdan olingan?
- 2.Kviling san`ati qaerda va qachon paydo bo`lgan?
3. Kompozitsiya yaratishning mazmunini ayting.
- 4.Kviling san`atining o`ziga xos xususiyatlari nimada?
- 5.Kvilingdan san`at asarlarini tayyorlashda qanday ish jihozladiidan foydaniladi?
6. Qog`ozdan kviling san`at asarlarini tayyorlashda qanday elementlardan foydalanadi?
- 7.Kviling texnologiyasida qanday shakllardan foydalanamiz?
8. Kvilling texnikasida tasvir yaratishda nimaga ko'proq e'tiborni qaratish lozim?


9. Kviling san`ati bilan shug`ullanganda qanday qoidaga rioya etish kerak?

10. Bolalar hayotida kviling san`ati qanday ahamiyat kasb etadi?

Mavzu bo`yicha amaliy mashg`ulot topshirig`i:

1. Meva yetishtiruvchi kasb egasi haqida nimalarni bilasiz? U haqida bilganlaringizni yozing.

2. Meva yoki gullardan birini yasang.



Boshlang'ich sinf "Texnologiya" darslarida namunali dars ishlanmalarini tayyorlash.

1-soatlik namunaviy dars ishlanmasi:

Sana: _____

MAVZU: Qog'oz va uning turlari. Kitob uchun xatcho'p yasash

Darsning maqsadi. Ta'limiy: DTS talablari asosida dars o'tish. Qog'ozni qirg'ish va buklash orqali dekorativ gullar tayyorlash (atirgul, nilufar va h.k.)ni o'rgatish. **T.k.1** buyum yasashda foydalangan texnologik xarita bilan ishlash bosqichlarini o'rtoqlariga tushuntirib bera olish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni ilm olishga qiziqtirish. Mehnatga oid maqol va matallar orqali ilm olishning afzalligini tushuntirish. Mehnatsevarlik va halollikka o'rgatish. **T.k.5** buyumlarni bezashda milliy naqsh elementlaridan foydalana olish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni guruhda ishlash, yangi mavzuni guruhda munozara orqali anglab yetish ko'nikmasini shakllantirish. **F.k.1** rejalay oladi, yelimlay oladi, sodda loyihalash ishlarini bajara oladi;

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi,

Darsning metodi. Amaliy, tushuntirish.

Darsning jihozi. yelim, rangli yoki oq qog'o'z, qaychi, qalam, sertkul, bo'yoqlar, cho'tkalar figuralar taglik qog'o'z, yoki klyonka, narsaning namunasi..

Darsning borishi.

T/R	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga

tayyorgarligini tekshirish.

II. O'tgan darsda berilgan uyga vazifani tekshirish va o'quvchilarni baholash.

III. Yangi mavzuning bayoni:

- Qani bolalar qanday mehnat qurollarini bilasiz?

-Ulardan qanday foydalanasiz?

O'quvchilar javob beradilar. Oqituvchi bu javoblarni to'ldiradi.

Mehnat qurollarini birma- bir ko'rsatib undan foydalanishda texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilish kerakligi eslab o'tildi.O'quvchilar mustaqil yasay boshladilar.Yasash vaqtida qiynalgan o'quvchilarga yordamlashib turiladi.

O'quvchilar bilan qog'ozlar haqida suhbatlashildi.

Qog'ozlar turlari ularni qanday tayyorlanishi haqida savol- javob o'tkazildi.

-Bolalar bugun biz sizlar bilan kitob uchun xatcho'p yasash tayyorlash haqida ma'lumot olamiz.Qaychi,yelimdan foydalanishda qanday texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish kerakligi eslab o'tildi.O'quvchilar mustaqil yasay boshladilar.Yasash vaqtida qiynalgan o'quvchilarga yordamlashib turiladi.


Kitob haqidagi ma'lumotlarni o'qituvchi o'quvchilarga aytib, tushuntirib beradi.Kitobning tug'ilgan kuni qachon ekanligini bilasizmi?Men esa bu o'tmishning eng go'zal kuni ekaniga ishonaman.Ota-bobolarimiz toshlarga,daraxt po'stlog'iga asarlar yozib qoldirishgan.Ana,qachon kitob ko'z ochgan?! Toshga bitilgan kitoblarning sahifalari yirtilmaydi,betlari sarg'aymaydi.Agar oralaringizda kim ko'p kitob o'qisa,kitobning tug'ilgan kuniga eng yaxshi sovg'a hozirlagan bo'ladi.

YUNESKO qaroriga binoan 1996-yil 23-aprel kuni Xalqaro kitob kuni,



2-aprel Bolalar kitobi kuni,aprel oyi kitob bayrami oyligi,deb e`lon qilindi.Yana bu kun dunyoning eng mashhur yuzuvchilari Migel De Servantes,Vilyam Shekspir


vafot etgan. Ana shu ulug' yozuvchilar sharafiga ushbu kun Xalqaro kitob kuni deb belgilangan.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.



O'quvchilar bilan birgalikda qog'ozni buklash usullarini bajarish.



V. Dars jarayonida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish va baholash. O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa. Qog'ozni qirqish va buklash orqali shakl hosil qilish.

Sana: _____

Mavzu: Qiziqarli shakllar

Maqsad:

Ta'limiy: O'quvchilarga mehnat ta'limi fani haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ish qurollaridan foydalanishda ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning ijodiy tafakkur, tasavvur va fantaziyalarini rivojlantirish.

Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi

Ish turlarini solishtiradi va loyihalaydi; Shakl va ranglar uyg'unligini to'g'ri ifodalaydi;

Amaliy mashg'ulot jarayonida mavjud muammoning muqobil yechimini topadi

O'z-o'zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi

Qog'ozni qirqish usullarini to'g'ri bajaradi Asbob-uskuna va moslamalardan to'g'ri foydalanadi Mehnat gigiyenasiga rioya qiladi

Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi

Turli materiallardan (barg, qush, hayvon, parranda) shakllar yasaydi Tabiiy urug'larda (naqsh, parrandalar, qo'ziqorin) shakllar yasaydi Kasb turlarini biladi Qog'ozni buklash texnikasi asosida mashina, kema, samolyot yasaydi Sodda ko'rinishdagi tabriknomalar tayyorlaydi. Mustaqil oddiy shakllarni yasaydi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars jihozi: ko'rgazma, mehnat qurollari, slaydlar

Dars tipi: aralash, savol-javob

Darsning borishi.

T/R	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I.Tashkiliy qism.

1.O'quvchilar bilan

2.Salomlashish .

3.Davomatni aniqlash .

II .O'tgan mavzuni mustahkamlash:

O'tilgan mavzu yuzasidan savol javob qilinadi ularning amaliy ishlari baholanadi va amaliy ishlarni bajarishdagi kamchiliklar haqida ko'rsatma beriladi.

Aziz bolajonlar! Biz dastlab qalam, chizg'ich, rangli qog'oz, qog'oz tekislagich, qaychi, yelim, mo'yqalam bilan ishlashni o'rganamiz.

III. Yangi mavzu bayoni.

Rasmdagi shakllar nomini ayting:




Shakllarni qogʻozga tushirish uch xil usulda amalga oshiriladi. Ular quyidagicha:





1) shablon;

2) trafaret;

3) tangram.



Geometrik shakllarni hosil qiling



IV .Yangi mavzuni mustahkamlash .O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarni savollariga javob beriladi va ularga amaliy ishlar bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish darsni yakunlash:Dars yakunida , darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish , darsni yakunlash .

VI . Uyga vazifa : O'quvchilar darsdagi vazifalarni uyida davom etirib kelishadi

O`IBDO`: _____

Sana: _____

Sinf: 3-sinf

Fan:

Texnologiya

Mavzu: Mehnat ta'limi darsida foydalaniladigan ish qurollari

Maqsad:

Ta'limiy: Texnika havfsizligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: Badiiy-estetik didni o'stirish,Ehtiyotkorlikni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda ijodiy tafakkur, tasavvur va fantaziyasini rivojlantirish,

Kommunikativ kompetensiya: buyum yasashda ishlatiladigan ish qurollari va atamalar nomini o'zaro muloqot vaqtida qo'llay olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: buyumlar yasashni yangi usullarini izlab topish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi: texnologiya fani orqali ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: sinfda va oilada o'z o'rniga ega bo'lish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: o'zi yashab turgan diyordagi tarixiy obidalarni bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi: sxemalardan foydalana olish.

O'tish usuli: Tushuntirish , suhbat, ko'rsatmalilik, amaliy.

Dars jihozi: Mehnat qurollari.

Darsning borishi:

Dars elementlari	I	II	III	IV	V	VI
Davomiyligi	1	7	20	5	5	5

I. Darsni tashkil qilish. 1. Salomlashish.


2. Davomatni aniqlash.

3. O'quvchilarni darsga tayyorlash.

II. O'tilgan mavzular bo'yicha savol javoblar o'tkazish. Uy vazifani tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni.





Ish quollaridan foydalanishda mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni unutmang.

Qaychidan to'g'ri foydalaning.

1. Qaychini maxsus g'ilofda, belgilangan joyda saqlang.
2. Qaychining uchini yuqoriga qaratib ushlamang.

3. Qaychini ishlatib bo'lgandan so'ng ochiq holda qoldirmang.
4. Qaychini yurib turganingizda ishlatmang.
5. Qaychini faqat yopilgan holda, uchidan ushlab boshqalarga uzating.
6. Qaychi bilan ishlayotganda, qirqayotgan buyum va qo'l harakatingizga diqqatni qarating.
7. Yaroqsiz qaychidan foydalanmang.

IV. Darsni mustahkamlash;



V. O`quvchilarning olgan baholari kundaliklariga va daftarlariga qo`yiladi.

Uyga vazifa: _____

O`TIBO` _____

Sana: _____

Sinf: 3-sinf

Fan:

Texnologiya

Mavzu: Tabiiy materiallardan applikasiya yasash

Maqsad:

Ta'limiy: O'quvchilarga Tabiiy materiallardan applikasiya yasashni o'rgatish

Tarbiyaviy: Badiiy-estetik didni o'stirish, Ehtiyotkorlikni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda ijodiy tafakkur, tasavvur va fantaziyasini rivojlantirish,

Kommunikativ kompetensiya: buyum yasashda ishlatiladigan ish qurollari va atamalar nomini o'zaro muloqot vaqtida qo'llay olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: buyumlar yasashni yangi usullarini izlab topish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi: texnologiya fani orqali ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: sinfda va oilada o'z o'rniga ega bo'lish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: o'zi yashab turgan diyordagi tarixiy obidalarni bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi: sxemalardan foydalana olish.

O'tish usuli: Tushuntirish, suhbat, ko'rsatmalilik, amaliy.

Dars jihozi: Mehnat qurollari.

Darsning borishi:

Dars elementlari	I	II	III	IV	V	VI
Davomiyligi	1	7	20	5	5	5

I. Darsni tashkil qilish. 1. Salomlashish.

2. Davomatni aniqlash.


